

BIR BO'LSAK – YAGONA XALQMIZ, BIRLASHSAK – VATANMIZ!

www.mv-vatanparvar.uz



# VATANPARVAR

MILLYA

● Gazeta 1992-yilning 2

STONNING MUSTAHKAM QALQONIDIR!

Uzgan

● 2024-yil 20-sentabr, №38 (3100)

A  
Y  
L  
I  
Y  
A



MUDOFAA VAZIRLIGI JAMOASI  
XALQARO MUSOBAQANING  
MUTLAQ G'OLIBIGA AYLANDI

**4-5**

SAHRODAGI TAKTIK O'QUVLAR

**14**

NAZARIY BILIM  
MUSTAHKAMLANDI

**19**

KUCH, TEZLIK,  
TEXNIKA VA OMAD



IJTIMOIY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY, HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

**BIZ**  
HAQIMIZDA

@vatanparvar-bt@umail.uz

t.me/mv\_vatanparvar\_uz

t.me/mudofaavazirligi

facebook.com/mudofaavazirligi

instagram.com/mudofaavazirligi

youtube.com/c/uzarmiya

# DEMOKRATIK SAYLOVLARNING ASOSIY TAMOYILLARI



Umumxalq saylovlarini, tenglik, saylovlarda yashirin ovoz berish erkinligi, to'g'ridan to'g'ri (bevosita) ovoz berish demokratik saylovlarining asosiy tamoyillari hisoblanadi.

Ushbu demokratik saylov tamoyillari 2019-yil 25-iyunda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Saylov kodeksining 3-moddasida quyidagicha belgilangan: "O'zbekiston Respublikasida saylov o'tkazishning asosiy prinsiplari. O'zbekiston Respublikasida saylov umumiyligi, teng, to'g'ridan to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish orqali o'tkaziladi. Saylov ochiq va oshkora o'tkaziladi".

**1. Umumxalq saylovlarini tamoyili** barcha fuqarolarning, ularning jinsi, irqi, millati, sinfiy yoki kasbiy mansubligi, tili, daromadining miqdori, boyligi, ma'lumoti, diniy yoki siyosiy e'tiqodidan qat'i nazar, saylovlarda saylovchi yoxud nomzod sifatida ishtirot etishlari mumkinligini bildiradi

(Saylov kodeksi. 4-modda. Umumiy saylov huquqi. "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qonunchilik palatasi deputatlari va mahalliy Kengashlar deputatlari saylovlarini umumiyyatda.

Saylov kuniga qadar yoki saylov kuni o'n sakkiz yoshga to'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari saylov huquqiga egadir.

Fuqarolar jinsi, irqi va milliy mansubligi, tili, denga munosabati, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, ijtimoiy mavqeい, ma'lumoti, mashg'ulotining turi va xususiyatidan qat'i nazar, teng saylov huquqiga egadir).

Umumxalq saylovlarini tamoyildan ayrim holatlardagina cheklanishlar bo'lishi mumkin. Masalan, balog'at yoshiga to'lmaganlar saylovlarida qatnashish huquqiga ega emaslar. Shuningdek, ruhiy nosog'lom kishilar (agar sud tomonidan tasdiqlangan bo'lsa) va sud qaroriga ko'ra, jazoni o'tash joylarida saqlanayotgan mahbuslarga ham saylash va saylanish huquqi berilmagan.

O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga ko'ra, ozodlikdan mahrum etilgan og'ir va o'ta og'ir jinoyat sodir etgan ayrim toifadagi mahkumlardan tashqari ko'pchilik

mahkumlarga ovoz berish imkoniyati yaratilgan. Aytish joizki, ushbu normalar ba'zi demokratik davlatlar qonunchiligidagi ham mavjud emas (O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 128-modda. "O'zbekiston Respublikasining fuqarolari davlat hokimiyyati vakillik organlariga saylash va saylanish huquqiga egadirlar. Har bir saylovchi bir ovozga ega. Ovoz berish huquqi, o'z xohish-irodasini bildirish tengligi va erkinligi qonun bilan kafolatlanadi).

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati a'zolari Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar davlat hokimiyyati vakillik organlari deputatlarining tegishli qo'shma majlislarida mazkur deputatlar saylanganidan so'ng bir oy ichida ular orasidan yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanadilar.

Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar, shuningdek sud hukmi bilan ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar saylanishi mumkin emas.

Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar, shuningdek og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar sodir etganlik uchun sudning hukmiga ko'ra ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar saylovda ishtirot etish huquqidan faqat qonunga muvofiq hamda sudning qarori asosida mahrum etilishi mumkin. Boshqa har qanday hollarda fuqarolarning saylov huquqlarini to'g'ridan to'g'ri yoki bilvosita cheklashga yo'l qo'yilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bir vaqtning o'zida ikkitadan ortiq davlat hokimiyyati vakillik organining deputati bo'lishi mumkin emas.

Saylov o'tkazish tartibi qonun bilan belgilanadi).

Xalqaro ekspertlar saylash huquqiga ega bo'lgan va harakatlanish erkinligi cheklangan yopiq muassasalarda saqlanayotgan shaxslarni qo'rqtishishi mumkinligi nuqtayi nazaridan juda zaif elektorat segmenti deb hisoblaydi.

Belgilangan tartibga ko'ra, saylash huquqiga ega mahkumlar qamoqda saqlash va ozodlikdan mahrum etish joylarida tuzilgan saylov uchastkalaridagi saylovchilar ro'yxatiga kiritiladi. Saylovchilar ro'yxatlari esa mazkur muassasalar rahbarlari tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar asosida uchastka saylov komissiyasi tomonidan tuziladi va saylovchilar yagona elektron ro'yxatiga kiritiladi. Agarda harakatlanish erkinligi cheklangan muassasalarda mahkumning saylash huquqi bo'la turib unda ishtirot etishiga to'sqinlik qilish holatlari bo'yicha murojaatlar kelib tushsa, ular darhol o'rganib chiqiladi.

Saylov kuni qamoqda saqlash va ozodlikdan mahrum etish joylarining ma'muriyati mahkumlarning saylov uchastkasiga kirib chiqishi va xavfsizligini ta'minlashi, shuningdek ichki tartib-qoidalariга riyo etishi uchun mas'ul hisoblanadi.

Qamoqda saqlash va ozodlikdan mahrum etish joylarida tuzilgan uchastka saylov komissiyalari mazkur muassasalarning ma'muriyati bilan birgalikda saylovchilarini saylov to'g'risidagi qonunchilik hujjalari, saylovga tayyorgarlik ko'rish, uni o'tkazish jarayonlari, saylov o'tkazish vaqtini va tartibi hamda nomzodlar haqida xabardor qilib boradi.

Shuningdek, nomzodlarga, ularning ishonchli vakillariga, siyosiy partiyalarga fuqarolar bilan uchrashuvlar o'tkazish orqali saylovoldi tashviqoti uchun teng sharoitlar yaratib berilishi lozim. Shundagina mahkumlar nomzodlar tomonidan ko'tarilayotgan tashabbuslar asosida ulardan birini tanlaydi va saylash huquqidan foydalanadi.

**2. Tenglik tamoyili** har bir saylovchi, u kim bo'lishidan qat'i nazar, bir ovozga ega ekanini bildiradi. Uning ijtimoiy kelib chiqishi, egallab turgan mavqeい va lavozimi yoki boshqa shaxsiga fazilatlari uning saylovchi maqomiga hech qanday ta'sir ko'rsatmasligi lozim. Saylov kodeksining 5-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari uchun "Teng saylov huquqi" kafolatlangan.

**3. Saylovlardacha yashirin ovoz berish erkinligi** – saylovchining

muayyan qarori boshqa biror kishiga oshkor qilinmasligini bildiradi. Ushbu tamoyil tanlash erkinligini ta'minlaydi, fuqarolarni ehtimoldan xoli bo'lмаган та'qiblardan himoya qiladi, qing'irlikning oldini oladi

(Saylov kodeksi. 7-modda. Yashirin ovoz berish. "Saylovdan erkin va yashirin ovoz beriladi. Saylovchilarining xohish-irodasini nazorat qilishga yo'l qo'yilmaydi.

Yashirin ovoz berish saylovchining xohish-irodasi ustidan har qanday tarzda nazorat qilish imkoniyatini istisno etadigan tegishli sharoitlarni yaratish orqali ta'minlanadi").

**4. To'g'ridan to'g'ri (bevosita) ovoz berish tamoyili** saylovchi aniq bir nomzod uchun bevosita ovoz berishi lozimligini anglatadi. Saylovchilar va nomzodlar o'rtasida biror bir vositachi mavjud emas, balki ana shu nomzodlardan qaysi biri saylanadigan lavozimiga saylanishini saylovchilarining o'zları hal qiladi

(Saylov kodeksi. 6-modda. To'g'ridan to'g'ri saylov huquqi. "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qonunchilik palatasi deputatlari, mahalliy Kengashlar deputatlari fuqarolar tomonidan bevosita saylanadi").

Agarda fuqarolar oldin saylash guruhi yoki maxsus organ tashkil qilishsa va ular orqali nomzod saylansa, bunday saylovlar bilvosita saylovlar deb yuritiladi. Saylovchining ushbu turi aksariyat hollarda fuqarolarda saylov larga nisbatan qiziqishning pasayishiga olib kelishi mumkin.

Mamlakatimizda saylovga tayyorgarlik ko'rish hamda uni o'tkazishdagi ochiqlik va oshkorlik ta'minlanishi Saylov kodeksining 8-moddasida qat'iy kafolatlangan. Jumladan:

"Saylovga tayyorgarlik ko'rish hamda uni o'tkazishni saylov komissiyalari ochiq va oshkora amalga oshiradi.

Saylov komissiyalari fuqarolarni o'z ishi to'g'risida, saylov okruglari, uchastkalari tuzilgani haqida, saylov komissiyalarining tarkibi, ularning joylashgan yeri va ish vaqtini to'g'risida xabardor etadi, saylovchilar ro'yxatlari, saylovda ishtirot etayotgan siyosiy partiyalarning ro'yxati bilan tanishitiradi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga, Qonunchilik palatasi deputatligiga, mahalliy Kengashlar deputatligiga nomzodlar to'g'risidagi, shuningdek ovoz berish va saylov yakunlari haqidagi ma'lumotlarni ma'lum qiladi.

Ommaviy axborot vositalari saylovga tayyorgarlikning borishini va saylov qanday o'tayotganini yoritib boradi.


Saylov komissiyalarining majlislari ochiq o'tkaziladi. Saylov komissiyalarining qarorlari ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi yoki ushbu kodeksda belgilangan tartibda hammaga ma'lum qilinadi.

Saylovga tayyorgarlik ko'rish hamda uni o'tkazishga doir barcha tadbirdorda, shuningdek saylov kuni ovoz berish xonalarida va ovozlarni sanab chiqishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga, Qonunchilik palatasi deputatligiga, mahalliy Kengashlar deputatligiga nomzodlar ko'rsatgan siyosiy partiyalardan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridan kuzatuvchilar, ommaviy axborot vositalari vakillari, boshqa davlatlardan, xalqaro tashkilotlardan kuzatuvchilar ishtirot etish huquqiga ega".

**Mayor Abdugodir OTABOYEV,  
Qurolli Kuchlar akademiyasi  
katta o'qituvchisi,  
s.f.f.d. (PhD), dotsent**

Bugunimiz qahramonlari

# “SIZ MENI O‘QITGANSIZ!”



...Yillar insonga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Qaddi-bastingiz, qiyofangiz o‘zgaradi. Ana shunday o‘zgarishlar bilan biri qarshingizdan chiqib, siz bilan qadrondolardek so‘rashsa, o‘zini tanitib, “Siz meni o‘qitgansiz”, desa, uning yuz-ko‘zlaridan yoshlikni behuda izlasangiz-da, qalbingiz ta’rifsiz haroratdan yorishib ketadi. Buni o‘qituvchilar hammadan yaxshiroq biladi. “Siz meni o‘qitgansiz” degan iborada o‘tgan yillar zalvarini, mazmundorligini his qilasiz. Demak, umr behuda o‘tmabdi!

Mamlakatimiz mustaqilligining 33 yillik bayrami Mudofaa vazirligi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti professori Abdimalut Abdigaparov hayotida unutilmas iz qoldirdi. Eng ulug’, eng aziz ayyom munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga ko‘ra, davlatimizning yuksak mukofoti – “Sodiq xizmatlari uchun” medali bilan taqdirlandi.

Bu, uzoq va sharafli bir yo‘lning mukofotidir! O‘zbek milliy armiyasining professional asosda shakllanishiga fidokorona xizmatlari bilan hissa qo‘sghan kamtarin insonga ehtiromdir!

Quyida professor Abdimalut Abdigaparov bilan suhbatimizni o‘qisiz.

*– Hayotingizni qay tariqa harbiy xizmat bilan bog‘laditingiz? Toshkent davlat universitetini (hozirgi O‘zMU), keyin Moskvada aspiranturani tamomlagansiz. O‘sha paytalar, ya’ni to‘qsoninchi yillarning ikkinchi yarmi milliy armiyamiz murakkab shakllanish jarayonlarida edi, bugungidek katta imkoniyatlar bo‘lmagan.*

– O‘sha kunlarni yaxshi eslayman. Rostini aytasam, o‘qib yurgan kezlarimiz bir oylik mashg‘ulotlarga jalb qilinib, katta leyttenant harbiy unvoni berilganiga ham unchalik e’tibor bermaganman. Chunki ilm yo‘lini tanlagan edim. Aslida faqat Qurolli Kuchlarimiz uchun emas, butun yurtimizda vaziyat shunday edi. Ilmiy darajasi bor mutaxassislar harbiy xizmatga jalb qilinayotganini eshitdim. Qiziqib ko‘rdim. Suhbatda ariza yozmasdan bir yarim yil xizmat qilishim mumkinligini bildirishdi. Men ariza yozdim. Agar o‘sha kunlarni birikki og‘iz so‘z bilan ifodalash kerak bo‘lsa, oddiygina qilib: “Yurtga kerakli bo‘lish imkoniyati” deb aytaman. Bu qarorimidan hech qachon afsus qilmadim.

*– Qiyin bo‘lgandir, a? Aslida har ikkisi ham ilm yo‘li, biroq harbiy hayotning birmuncha o‘ziga xos murakkab tomonlari bor.*

– Tabiiy. Hech narsaga osonlik bilan erishib bo‘lmaydi. Jamoaga, muhitga ham ko‘p narsa bog‘liq. Aloqachi ofitser (*rahmatli*) Rustam Qodirovni har doim minnadtorlik bilan eslayman. Ilk kez xizmatni boshlaganimda shu inson aloqa sirlarini o‘rgatgan, ilmidan meni va menga o‘xshagan bir necha kishilarni bahramand etgan. Iste’foga chiqqanidan keyin ham aziz ustozni yo‘qlashni kanda qilmadim.

*– Malaka oshirish fakultetida Umumharbiy nizomlar, topografiya, o‘q otish tayyorgarligidan dars berasiz. Bularni nima bog‘lab turadi?*

– Aniq fanlar. Bir necha yil, aniqrog‘i, harbiy xizmatga qadar Toshkent davlat texnika universitetining 4-oliy matematika kafedrasini assistenti, dotsenti bo‘lganman. Asli hayotimizni matematikasiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. O‘q otish tayyorgarligi ko‘proq fizika qonunlariga tayanadi. Topografiyanı esa mustaqil o‘rgandim.

*– Mustaqil o‘rganish qiyin bo‘lmadimi?*

– Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy institutida shunday o‘qituvchilar borki, o‘z mutaxassisliklarini miridan sirigacha mukammal egallagan. Ilm-ma’rifatga umrini bag‘ishlagan, tom ma’noda fidoyi insonlar. Hazrat Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonidagi quyidagi misralar aynan shunday insonlarga atalgandek:

*“Hunarni asraban netgumdir oxir, Olib tufroqqami ketgumdir oxir.”*

Masalan, Ergash Idiyev. Shu kunga qadar u kabi topografiya bilimdonini ko‘rmadim. Topografiyanı o‘rganishimda bu insonning katta hissasi bor. Ustoz desam arziydi.

*– Siz universitetni tamomlagan dastlabki yillardayoq ilmiy izlanishlarni boshlagansiz. Shunga qaramay, professor unvonini yaqin o‘tgan yillarda olibsiz. Albatta, professor bo‘lish oson emas. Biroq sizning imkoniyatlariningiz, ilmiy salohiyatingiz bilan tanish odamni o‘rtadagi “katta tanaffus” ajablantiradi.*

– Ha, shunday bo‘lgan. Men institutda ish boshlagan kunimdan boshlab yaxshi o‘qituvchi bo‘lishga intildim. Yoshlarga ilm berish uchun yaxshi o‘qituvchi bo‘lishning o‘zi yetarli deb o‘yladim. Bu boradagi qarashlarim yangilanayotgan davrga to‘g‘ri kelmas ekan. O‘qituvchilik bilan barobar ilmiy izlanishlardan ham to‘xtamaslik zarurligini anglab yetdim.

*– Yosh hamkasblaringizga qanday maslahat bergan bo‘lar edingiz?*

– Donolarning aytishicha, ota-onabolasini emas, eng avvalo, o‘z-o‘zini tarbiya qilishi kerak. Chunki bolalar ota-onalarining oynasi, ota-onalarining takroridirlar. Bu qarash o‘qituvchilarga ham taalluqli. Ta‘lim va tarbiya bir-biridan ajralmasdir. Talabalarimiz ham bizni takrorlaydi. Biz ularga ibratmiz. Ular bilan muomalada insoniy chegaralarini bilish, so‘z va amal birligi lozim.

*– Ota-onalar dedingiz, onangiz haqida gapirib bering...*

– Onam... (*professor onam*, dedi-yu, ko‘zlaridan yirik ikki tomchi yosh yumaladi. Buni beldirmaslik uchun shosha-pisha kafti bilan yuzini sidirdi. Ammo men ko‘rdim. Dunyoning anchagina achchiq-chuchugini totigan katta yoshli bir odam onam deganda to‘kilsa, bu uning ulkan, uyg‘oq, halim qalbidan darakdir) u juda mehribon edi. Toshkentdan Chimkentga borganimda shu qadar parvona bo‘lar ediki, “Sigir sog‘yapman, birpas turib yonimga kel, oxirini senga sog‘ib beraman”, derdi. Oxiri eng qaymoqli bo‘lar ekan, shuni menga ilinardi.

Onam ishonuvchan edi. Men ham unga o‘xshayman. Ishonuvchanman.

*– Bo‘sh vaqtolariningizni qanday o‘tkazasiz?*

– Qush uyasida ko‘rganini qiladi, deydi dono xalqimiz. Chimkentda katta bog‘imiz bo‘lar edi. Bobom parvarishlardi. Kichkinaligimdan unga yordamchi bo‘ldim. Bo‘sh vaqtlarimda bog‘ ishlarini bajaraman. Bolaligimdagι o‘sha qadrond mevali bog‘larni shu yerda, Toshkentda ham ko‘rgim keladi.

*– Inson hayotida unutilmas, yorqin lahzalar ko‘p. Siz nimalarni eslaysiz?*

– Darhaqiqat, eslashga arzirli voqealar ko‘p. Ayniqa, millionlar yashaydigan shaharda biri qarshingdan chiqib, sen bilan qadrondolardek salomlashib, ko‘zlarindagi hayronlikka javoban “Siz meni o‘qitgansiz!” desa, ruhingda tiniqlik, qalbing ajib haroratdan yorishib ketadi. Qarshingda yoshliging, navqironliging turgandek hislar uyg‘onadi. Ixtiyorsiz sevinasan, ular ko‘pligidan, bugun yurt himoyasida mas‘uliyatlari lavozimlarda xizmat qilayotganidan g‘urur tuyasan.

\*\*\*

“Siz meni o‘qitgansiz!” degan insonlardan biri axborot xavfsizligi fani o‘qituvchisi Sodiq Allayev. U shunday deydi:

– Bu yerda ish boshlagan kunim katta jamoa orasida turgan ustozni tanidim. Oldiga shunchaki “Meni o‘qitgansiz”, deb bormadim. Arxivimdan Harbiy qasamyodga tayyorgarlikda olingan suratni olib, xonasiga kirdim. Rasmida yosh, navqiron vaqtimiz. Ustoz deyarli o‘zgarmagan. O‘zimni tanitdim. O‘tgan kunlarni eslab, suhbatimiz qizidi. Yoz jaziramasidagi dala mashg‘uloti, mashaqqatli yo‘l, mashinamiz buzlib qolgani... Tasavvur qiling, tashqarida harorat 40 daraja, odam tashishga mo‘ljallanmagan mashinaga chiqishimiz kerak, boshqa chora yo‘q. Mashinaning ichi 60 daraja bo‘lsa kerak, chiqishdan bosh tortdik. Shunda kapitan Abdimalut Abdigaparov hech so‘z demay chaqqonlik bilan mashinaga chiqdi... ortidan ergashdi!

Bugun u bilan yana xizmatni davom ettiriyapmiz.

**Inobat IBROHIMOVA,**  
**“Vatanparvar”**



Harbiy xizmatchilarimizning xorij mamlakatlarida erishayotgan g'abalalaridan ko'ngil behad quvonchga to'ladi. O'z o'rnidida bu xabardan xalqning qalbi Vatan sarhadlari ishonchli qo'llarda ekaniga amin bo'lib, orom topadi. Bu gal O'zbekiston Mudofaa vazirligi jamoasi Koreya Respublikasining Kongvando provinsiyasi Inje shahrida o'tkazilgan Ikkinci xalqaro ilmiy-jangovar tayyorgarlik musobaqasida eng yuqori natija bilan mutlaq g'olibga aylandi.

Ta'kidlash kerakki, unda jami 13 ta jamoa, jumladan AQSh, Avstraliya, O'zbekiston va Kambodja davlatlaridan 500 dan ortiq harbiy xizmatchi ishtirok etdi. Har bir jamoa tasodifiy qur'a tashlash orqali bellashuvga kirishdi.

Musobaqada ishtirok etgan Koreya Respublikasi Qurolli Kuchlari Bosh shtabi boshlig'i Pak An-So: "Mazkur bellashuv harbiy hamkorlikni mustahkamlash uchun qimmatli poydevorga aylanadi", deya fikr bildirdi. Quvonarliси, ushbu xalqaro musobaqa ishtirokchilarimiz uchun nafaqat xalqaro harbiy hamkorlikni mustahkamlash, balki Vatan himoyachilarimizning jahon arenasidagi nufuzini yanada mustahkamlash uchun ham qimmatli poydevor bo'ldi.

Ishtirokchilar operativ rejani ishlab chiqish va milliy kelishuv bo'yicha majburiyatlarni bajarish,

## QIMMATLI POYDEVOR



bu orqali bo'linmalarning qo'shma operatsiyalari uchun zarur bo'ladigan ko'nikma va tajriba oshirishga muvaffaq bo'ldi. Baholash jarayoni esa guruuhlar tomonidan shartlar to'liq bajarilgani, "omon qolish" darajasi, jangovar harakatlar qoidalariga rioya qilingani, jangovar harakatlar taktik vaziyatga mos kelishini har tomonlama tahlil etish natijalarini xabardor qilish orqali o'tkazildi.

Yakunda O'zbekiston Mudofaa vazirligi jamoasi Ikkinci xalqaro ilmiy-jangovar tayyorgarlik musobaqasida eng yuqori natijani qayd etib, mutlaq g'oliblikni qo'liga kiritidi.

Yangi O'zbekistonning mudofaa salohiyati, harbiy xizmatchilarimizning professionallik darajasi yuqori ekani Koreya Respublikasi mezbonlik qilgan yana bir bellashuv





## MUDOFAA VAZIRLIGI JAMOASI XALQARO MUSOBAQANING MUTLAQ G'OLIBIGA AYLANDI



- Birinchi xalqaro menganlar musobaqasida ham o'z isbotini topdi.

Amerika Qo'shma Shtatlari, Singapur, Indoneziya, Koreya kabi davlatlarning eng mohir 26 ta jamoasini o'zida birlashtirgan musobaqada harbiyalarimiz butunlay notanish qurollardan foydalanib, murakkab shartlarni bexato bajarishga harakat qildi.

- Tunda bino ichidan aniqlikka o'q otish, stress ostida menganlik quroldan o'q otish hamda dushmanga sezdirmay yaqinlashib o'q otish kabi vazifalarni belgilangan vaqt oralig'ida bajarish har bir menganidan kuchli iroda, qat'iyat, malaka va mahorat talab etadi.

O'quv yili rejasiga asosan olib borilgan mashg'ulotlarda har tomonlama toblangan

o'g'lolarimiz barcha shartlarda o'zlarining bor kuch va imkoniyatlarini amalda qo'llab, g'olib bo'lishga harakat qildi, - deydi musobaqa murabbiysi mayor Shahboz Eshonqulov. - To'rt kun davom etgan musobaqada menganlar juftligi jami 16 ta maxsus mashqni bajardi.

Murosasiz bellashuvlar ostida kechgan musobaqa yakuniga ko'ra, mezbon davlat birinchi o'rinni qo'lga kiritgan bo'lsa, O'zbekiston menganlari ikkinchi o'ringa loyiq deb topildi. Kuchli uchlikni AQSh jamoasi egalladi.

Xalqaro musobaqaning g'oliblariga aylangan harbiy xizmatchilarimiz Toshkent xalqaro aeroportida tantanali kutib olindi.

**Mayor Aziz NORQULOV,  
"Vatanparvar"**

# Sahrodagi taktik o'quvlar

Mamlakatimizning shimolida aralash tarkibdagi bo'linmalar ishtirokida mudofaa jangini tashkil etish bo'yicha ko'rgazmali vzvod taktik o'quvi o'tkazildi.

Bugun xalqaro maydonda o'z so'zi va o'rniga ega bo'lib borayotgan Qurolli Kuchlarimizning jangovar salohiyati yildan yilga yuksalib bormoqda. Bunda tizimda olib borilayotgan yangilanish va o'zgarishlar muhim o'rinni tutadi. Xususan, harbiy xizmatchilarining jangovar va axloqiy-ruhiy tayyorgarligini oshirish borasidagi yangicha yondashuvlar harbiy xizmatchilarining kasbiy mahorati yanada oshishiga xizmat qilmoqda.

Qo'shnarning jangovar tayyorgarligini mustahkamlash, ularni zamonaviy qurol-

asлаha va harbiy texnikalar bilan ta'minlash, jang olib borishning yangicha uslublarini tayyorgarlik jarayonlariga samarali tatbiq etish Qurolli Kuchlarimiz qudratini oshirishning asosini tashkil etadi. Shu boisdan bugungi kunda Mudofaa vazirligi qo'shnlarida jangovar tayyorgarlikka katta e'tibor qaratilib, zamonaviy jangovar harakatlarni chuqur tahsil etish orgali qo'shnlar tayyorgarligiga yangicha mashg'ulot va me'yorlar kiritilmoqda.

Majmuaviy taktik o'quvi shartiga ko'ra, bir necha yuzlab kilometr masofada davlatimiz chegarasini noqonuniy buzib kirgan va mamlakat ichkarisiga harakatlanayotgan shartli dushmanni to'xtatish va yer bilan yakson qilish bo'yicha



o'quv-jangovar vazifa olgan vzvod yig'in signali bo'yicha yuqori jangovar shaylik holatiga keltirildi. Jangovar va harbiy texnikalarni saqlash parkida barcha texnikalar safarga shaylandi.

Harbiy va jangovar texnikalarga joylashgan shaxsiy tarkib zudlik bilan doimiy joylashgan joyni tark etib, kolonna bilan belgilangan hududga marsh amalga oshirdi. Harakat davomida kolonnaga shartli ravishda hujumlar uyuştirilib, turli nostonart vaziyatlarda harbiy xizmatchilarining harakati baholab borildi.

Dala sharoitida bo'linmalarning joylashuvi,

hudud qo'riqlovi, muhofaza va ta'minotni tashkil etish bo'yicha olib borilgan mashg'ulotlar davomida shaxsiy tarkib belgilangan joylarni tayyorlash va jihozlashga kirishdi. Shaxsiy tarkib cho'l hududida bo'linmalar va texnikalarning joylashuvi uchun sharoitlar yaratilish, tunda mudofaa jangini olib borish bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazildi. Tankchilar vzvodi og'ir jangovar texnikalari bilan madad bergancha shartli dushmanga katta talafotlar yetkazib, uning zirhlisi texnikalarini safdan chiqardi.

Barcha turdagи qurollardan o'q uzilib, shartli dushman kuchlari yo'q qilindi. O'zaro hamkorlik va uyushqoqlik, harbiy xizmatchilarining yuksak malaka va mahorati bo'linmalar oldiga qo'yilgan o'quv-jangovar vazifani muvaffaqiyatl bajarishga zamin yaratdi.

**Kichik serjant Abdullajon UMARALIYEV,  
Shimoli-g'arbiy  
harbiy okrug  
matbuot xizmati**

**Tavsiyanoma – muhim imtiyoz**

Farzandi dunyoga kelishi bilan otaning shirin orzular og'ushida xayol qilishi tabiiy. Jajji qo'lchalaridan yetaklagancha bolalar bog'chasi eshididan kirgizib yuborgan onanining ko'nglidan ajib tuyg'ular o'tadi. Katta maktab ostonasidan birinchi marotaba ko'zlarini javdiragancha kelayotgan bolasining hayratidan quvongan ota-ona hayajonini ta'riflashning imkonini bo'lmasa kerak.



# “OTA-ONANGGA

## rahmat desalar bas”

Bugun ana shunday quvonchli lahzalarini yana bir bor his qilayotgan ota – podpolkovnik Rahim Husanov bilan dildan suhbatlashishni lozim topdik. Bir yilda ikki farzandining oliy ta'limga muassasasiga o'qishga qabul qilinishi har qaysi ota-ona uchun quvonarli hol. Qachonlardir Rahimjonning onasi ham o'g'lini Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurtining kursantlari safida ko'rishni orzu qilgan edi. Buni qarangki, bugungi kunda Rahim Husanov xuddi o'sha bilim yurtining Taktika kafedrasida kursantlarga ustozlik qilmoqda.

### Onamning orzusi

Maktabning yuqori sinifida o'qib yurgan kezlarim qo'shnimizning o'g'li harbiy libosda ko'chamizdan o'tib qoldi. Oliy harbiy bilim yurtida ta'limga olayotgan u yigit bizdan bir yosh katta bo'lib, o'qishidan ta'tilga chiqqan ekan. To'g'risini atysam, barcha hamqishloqlar singari mening ham kursant akamizga havasim kelgandi. O'shanda onam oliy harbiy bilim yurtida o'qishimni juda xohlagan.

Oradan bir yil o'tib, tumanimiz mudofaa ishlari bo'limga hujjat topshirdim va o'sha yili Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurtining kursantlari safiga qabul qilindim. Mana, 26 yillardiki, ota-onamning duolari hamda harakatlarim ortidan sharafla kasbimda sobitman. Otam doim: "Bolam, ota-onangga rahmat, desalar bas, boshqa hech narsa kerak emas", deydi. Hayotim davomida ota-onamga rahmat olib keladigan ishlarni qilib, otamning ushbu o'gitlarini bugun farzandlarimiga uqtirib kelmoqdaman.

### Oila

Harbiylarning faoliyati o'ta sharafla bo'lish bilan birga mashaqqati ham oz emas. Ayniqsa, oila degan muqaddas qo'rg'on qurilgach, uning mas'uliyati yelkamizda bo'lishi tabiy ekan. Vatan ichra vatanimiz bo'lgan oilamiz tinch bo'lsa, xizmat faoliyatimizda xotirjamlik bo'ladi. Bunday kezlarda erkakni tushunadigan, uning kasbini hurmat qiladigan ayol bilan turmush qurish katta ahamiyat kasb etadi. Mana shu yil turmushimizga 20 yil bo'libdi. Bu vaqt davomida ne-ne sinovli kunlarni boshdan o'tkazmadik. Qayg'u-quvonch, borlig-u yo'qlik deysizmi, barchasini mardonavor yengishimizda, avvalo, bir oila sifatida tushunish ortidan erishdik, deb ayta olaman.

### Farzand tarbiyası

Inson biror yumush bilan shug'ullanmas ekan, bema'ni ishlar bilan mashg'ul bo'ladi. Shuning uchun farzandlarim tarbiyasida shu aqidaga



qat'iy amal qilaman. Ularni bo'sh qoldirmaslik uchun turli to'garak va o'quv markazlariga jalb etganman.

Oilada farzand tarbiyasi bilan ayol kishi ko'proq shug'ullanishi maqsadga muvofiq. Erkak uyda kamroq bo'lishini inobatga olsak, bolalar tarbiyasida onanining o'rni muhimroqdek. Ona farzandlari oldida otaning o'rmini oshirib qo'yarkan, biror farzand otaga tik boqmaydi. Oilamizda 3 o'g'il farzandni voyaga yetkazayotgan bo'lsak, ular bilan ayolim shug'ullanadi. Va har bir harakatlaridan meni ogohlantirib turadi. Ularga ota sifatida to'g'ri yo'lni ko'rsatib turishimning o'zi kifoya. Farzandlarim bilan qat'iy kun tartibi asosida shug'ullanishini nazorat qilaman. "Sog' tanda - sog'lam aql" degan naqlga riyoja qilgan holda, har tong 6:00da o'g'illarim uchun "podyom" bo'ladi. 6-7 kilometr masofaga yugurish mashg'ulotidan keyin qolgan yumushlari bilan shug'ullanishadi. Bu qat'iy belgilangan tartib oilamiz an'anasisiga aylanib ulgurgan. Hatto o'zim ham haligacha ular bilan birlgilikda yuguraman. Agar xizmat yuzasidan uyda bo'lmay qolsam, telefon orqali ularning badantarbiya mashg'ulotlariga chiqishini nazorat qilaman.

### Tanlovdag'i erkinlik

Aslida kasb yoki hunarning yomoni bo'lmaydi. Tanlovda xatolik bo'ladi xolos. Muammo shundaki, oxirgi paytlarda aksariyat yoshlar serdaromad va barchaning nigohida bo'lgan kasbiy yo'nalishlarni tanlamoqda. Ammo o'zi

qiziqmagani va qobiliyati bo'lмаган sohani tanlaganlari bois o'sha sohaning yetuk mutaxassisini bo'lib yetishmaydilar. Oqibatda esa kasbidan kamol topmasdan bir umr qiyinchilik bilan kun kechiradilar.

Farzandlarimning kasbiy tanlovida erkinlik berishim bilan bir qatorda o'sha sohaning "minus" va "plus"larini aytaman. Ammo oxirgi tanlovni baribir o'zlariga qo'yib bergenman. Katta o'g'lim shu yil Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutiga qabul qilindi. O'rancha o'g'lim esa O'zbekiston harbiy aviatsiya institutini tanladi hamda imtiyoz asosida kursantlikka qabul qilindi. Qarshida bo'lib o'tgan kursantlarning tantanali Vatanga qasamyodiga oilamiz bilan bordik. Hayajonli lahzalar edi. Harbiy sohada chorak asrdan ko'proq faoliyat yuritgan bo'lsam-da, farzandimning safda yurishlari ota sifatida ko'nglimda ajib tuyg'ularni to'lqinlantirdi. Onasi ham quvonch ko'zyoshlarini tiya olmadi. Vatan sarhadlarini qo'riqlashdek sharafla kasbni tanlab xato qilmaganimni, o'tgan umrim beiz ketmaganini his qildim. Bugun o'g'lim ham samo lochinlari singari havo sarhadlarimizni qo'riqlashga ahd qilgan ekan, uning ham umri zoye ketmasligiga aminman!

Bu yil podpolkovnik Rahim Husanovning o'g'li Samandar Bozorov O'zbekiston harbiy aviatsiya institutiga imtiyoz asosida kursantlikka qabul qilindi. Bugun u ham otasi singari harbiy libos kiydi. Samandarning ham o'z aytar so'zi bor.

### Dadamga havas qilib...

Har tong dadamning shoshgancha uydan ishga ketishini havas bilan kuzatardim. Ko'chada ham, maktabda ham harbiy xizmatchining o'g'li ekanimiz bizga faxr tuyg'usini berardi. "Mening dadam harbiy, u hamma narsani qila oladi" degan o'y bizni hech qachon tark etmagan. Yashash manzillarimiz va o'qish joylarimiz ham ko'p o'zgargan. Gohida maktab, muhit, mahalla va sharoitning o'zgaraverishi ruhan ta'sir o'tkazardi. Ammo "Men harbiyning farzandiman!" degan faxr barchasidan ustun kelgan. Dadam bizning tarbiyamiz bilan bir qatorda ta'limirizga ham juda katta e'tibor berdi. Jismoni tayyorgarligimiz hamda xorijiy tillarni o'zlashtirishimiz uchun sharoit yaratdi. "Sen o'zingda o'qishga bo'lgan iroda top, men moddiyatining ta'minlayman", degan so'zlarini haligacha qulog'imda jaranglaydi. Bugungi kunda to'rtta tilni o'zlashtirganman. O'laymanki, bu o'rganganlarimiz kelajakda o'zimizga asqatadi. Akam Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutiga qabul qilinganiga qaramasdan, dadam uni yana qo'shimcha darslarga borishini ta'minladi. "Menga diplomning o'zi kerak emas, birinchi o'rinda biliming bo'lsin. Bir sohani tanladim, o'sha yo'nalishning yetuk mutaxassisini bo'lgin", deb aytdi. Dadamning ta'limga bo'lgan fidoyiligini birligina shu misol orgali ham bilib olish mumkin. Men dadamga har tomonlama o'xshashni xohlayman...

**Sherzod SHARIPOV,**  
"Vatanparvar"

# TAYYORGARLIK

## qanday kechmoqda?

### BAJARILGAN ISHLAR



#### HUJFQ TOMONIDAN

obyektlarda 160 dan ortiq turdag'i xizmat ko'rsatish va tayyorlash tadbiri bajarildi  
460 ta modulli va 223 ta individual qozon mavsumga tayyorlandi



#### MUHANDISLIK TARMOQLARIGA XIZMAT KO'RSATILDI

178,1 km issiqlik tarmog'i  
102,9 km ichimlik va 87,4 km oqova suv tarmog'i  
81,6 km gaz va 229,8 km elektr tarmog'i



#### TA'MIRLASH

561 ta obyektda ishlar olib borildi



#### QURILISH TA'MIRLASH KOMANDALARI (RSB)

299 ta obyektda ishlar olib borildi  
4,088 mld.dan ortiq so'm mablag'i tejaldi



#### YOQILG'I ZAHIRASI

521 tonna pech yoqilg'i zaxirasi yaratildi

Hash-pash deguncha yoz fasli ham ortda qoldi. Kuz kelib havo haroratining keskin pasayishi aholidan hozirdanoq qish mavsumiga puxta tayyorgarlik ko'rishni talab qilmoqda. Ayni vaqtida butun

respublika bo'yicha ijtimoiy soha obyektlari, ta'lim va tibbiyot muassasalarini mavsumga tayyorlash ishlari qizg'in kechmoqda.

Kommunal holatlar qayta ko'rib chiqilib, issiqlik korxonalarini modernizatsiya qilinmoqda.

joydan foydalanish qismlari tomonidan Mudofaa vazirligi tasarrufidagi harbiy shaharchalardagi obyektlarda 160 dan ortiq turdag'i xizmat ko'rsatish va tayyorlash tadbiri bajarildi, jumladan:

- 460 ta modulli va 223 ta individual qozon mavsumga tayyorlandi;

- 178,1 km issiqlik tarmoqlari, 102,9 km ichimlik suvi, 87,4 km oqova suvi, 81,6 km gaz tarmoqlari va 229,8 km elektr tarmog'i o'rganilib, ko'zdan kechirildi va soz holatga keltirildi;

- Mudofaa vazirligi tasarrufidagi harbiy shaharchalar hududidagi 561 ta obyektda ta'mirlash

Jumladan, Mudofaa vazirligi qo'shinlarida ham harbiy shaharchalarni 2024-2025-yillarda kuz-qish mavsumiga tayyorlash borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu haqda bizga Mudofaa vazirligi Ta'minot departamenti boshlig'i polkovnik Otobek Abduraxmanov quyidagilarni so'zlab berdi:


- Shu kunga qadar mudofaa vazirining tegishli buyrug'iga asosan, o'tgan isitish mavsumi yakuni va harbiy shaharchalarda xizmat, uy-joy fondi va kommunal inshootlarni 2024-2025-yillarda kuz-qish mavsumiga puxta tayyorlash borasida bir qator ishlar olib borildi. Xususan, hududiy uy-

### Yangi o'rnatilgan suv isitish qozonlari

Harbiy shaharchalarda 42 dona yangi suv isitish qozoni o'rnatildi



So'nggi 5 yillikda 92 % energiya tejamkorligiga erishildi



## Mavsumga tayyorgarlik holati



**14 ta harbiy shaharchaga suvni kimyoviy  
yumshatish uskunlari o'rnatildi**



**17 ta harbiy shaharchaga ichimlik suvi  
uchun filtr uskunasi o'rnatildi**



**"Sazagan" va "G'urumsaroy" dala-o'quv  
maydonlariga oqova suvlarni qayta ishlash  
MBR qurilmasi o'rnatildi**



ishlari olib borildi.  
Shuningdek, isitish  
mavsumi rejasiga muvofiq,  
521 tonna pech yoqilg'i  
zaxirasi yaratildi.

Ta'kidlash joizki,  
harbiy shaharchalarda  
amalga oshirilgan bir  
qator mavsumiy texnik  
xizmatlar jarayonida  
issiqlik tarmoqlaridagi  
zulfinlar, markaziy  
qozonxonalar va yakka  
tartibdagi isitish qozonlari  
va nasoslari, transformator  
podstansiyasi, yerto'lalar  
qismidagi elevator  
qurilmalari va suv  
inshootlarining (KNS, VNS)  
sozligiga alohida e'tibor  
qaratildi. Muhandislik  
tarmoqlarini yuvish  
va issiqlik tarmoqlari  
izolyatsiya qobiqlari holati  
tekshirildi. Tizimdag  
zulfinlar yechilib, ichlari  
zang va chiqindillardan  
hamda oqova suv va yerosti  
quduqlari tozalandi. Elektr  
tarqatish qalqonlari va gaz  
taqsimlash qurilmalari  
ta'mirlandi (*tozalandi*).

Binolarning  
yerto'lalarini zax suvlardan  
saqlash choralar ko'rildi  
va u yerda mavjud  
bo'lgan muhandislik  
tarmoqlariga texnik xizmat  
ko'rsatildi. Gaz taqsimlash  
qurilmalaridagi jo'mraklar  
sozlandi. Hozirgi kunga  
qadar 14 ta harbiy  
shaharcha qozonxonalariga  
suvni kimyoviy tozalash  
uskunlari o'rnatildi.

Shuningdek,  
O'zbekiston Respublikasi  
Prezidentining 2023-yil  
28-sentabr kunidagi PQ-  
685-sonli qaroriga asosan,  
111 dona zamonaviy  
suv hisoblash uskunasi  
xarid qilindi (89 ta harbiy  
shaharchaga o'rnatildi) va  
masofadan boshqariladigan  
onlayn boshqaruv tizimiga  
ulandi.

Shu o'rinda aytib o'tsak,  
"Sazagan" va "G'urumsaroy"  
dala-o'quv maydonlariga  
oqova suvlarni qayta  
ishlash va zararsizlantirish  
qurilmalarini (*lokal tozalash  
inshooti*) o'rnatish ishlari  
100% bajarildi.

o'rnatildi. Natijada so'nggi  
5 yilda 92 foiz energiya  
tejamkorligiga erishildi.

2018-2024-yillarda pech  
yoqilg'isida ishlaydigan 15  
ta qozonxona suyultirilgan  
gazda ishlashga  
moslashtirildi. Pech  
yoqilg'isidan suyultirilgan

220-ton farmoniga asosan,  
belgilab berilgan vazifalar  
ijrosini o'z vaqtida, to'liq va  
sifatli ta'minlash maqsadida  
bugungi kunda Mudofaa  
vazirligi tasarrufidagi 26  
ta harbiy shaharchaga jami  
quvvati 9 354 kVt quyosh  
fotoelektr stansiyalari

Bugungi kunda Mudofaa  
vazirligi tizimida 1 559  
nafar qozonxona operatori  
texnika xavfsizligi talablar  
bo'yicha qayta o'qitildi.  
Ayni kunlarda harbiy  
shaharchalarda mavsumga  
tayyorgarlik bo'yicha  
amalga oshirilayotgan  
yakuniy ishlari doirasida  
suv isitish qozonlari  
hamda oqova suv tozalash  
inshootlarini o'rnatish,  
muhandislik tarmoqlarini  
kapital va joriy  
ta'mirlash ishlari amalga  
oshirilmoqda.

Xulosa qilib aytganda,  
bugungi kunda harbiy  
shaharchalarning kuz-qish  
mavsumiga tayyorgarlik  
holati 90 foizni tashkil etadi.  
Chunki hali bajarilishi lozim  
bo'lgan ishlari bor. Masalan,  
qozonxona, transformator  
podstansiyalari, gaz  
taqsimlash punktlari va  
muhandislik tarmoqlarida  
ta'mirlash, muhandislik  
inshootlari uchun zaruriy  
ehtiyyot qismlar hamda  
yoqilg'i manbalari  
zaxirasini yaratish bo'yicha  
ishlarni yakunlash, uzlusiz  
va sifatli ta'minot bo'yicha  
hududiy kommunal  
xizmat tashkilotlari bilan  
hamkorlikni yo'nga qo'yish  
kabi muhim tadbirlarni  
amalga oshirishimiz lozim.

### Qayta tiklanuvchi energiya manbalari hisobiga erishilgan tejamkorlik



**2024.yil  
(8 oy)**

**quyosh fotoelektr stansiyalari  
quyosh suvisitkichlari**

**harbiy shaharcha ehtiyojlar uchun foydalaniladi  
ortiqchasi shahar (fuman) elektr tarmoqlariga uzatiladi**

**26 ta harbiy shaharchaga quyosh fotoel.**  
stansiya o'rnatilgan – quvvati **9 354 kVt**

**2 920 000 kVt elektr energiyasi  
ishlab chiqarildi**

**2 920 mld so'm tejaldi**

**Shuningdek, joriy yilda  
2 850 kVt stansiya o'rnatildi**

**Yil yakuniga qadar 1 758 mld so'm  
tejash kutilmoqda**

Tahlillarga ko'ra, so'nggi  
5 yilda eski qozonlar 213  
ta zamonaviy energiya  
tejamkor suv isitish  
qozoniga almashtirildi.

Joriy yilda hududiy  
uy-joydan foydalanish  
qismalari tomonidan  
(*zaxira hisobi bilan*) 42  
dona zamonaviy energiya  
tejamkor isitish qozonini  
xarid qilish rejalashtirilgan  
bo'lib, hozirda 18 ta harbiy  
shaharcha hududlariga  
jami 39 ta isitish qozoni

gazga o'tilganda yoqilg'i  
sarfi xarajatlari 1,5  
baravarga (37%) qisqardi.  
Natijada mavsumda salmoqli  
pul mablag'lari tejashiga  
erishildi.

O'zbekiston Respublikasi  
Prezidentining 2022-yil  
9-sentabrdagi "Energiya  
tejovchi texnologiyalarni  
joriy qilish va kichik quvvatlari  
qayta tiklanuvchi energiya  
manbalarini rivojlantirish  
bo'yicha qo'shimcha chora-  
tadbirlar to'g'risida"gi

o'rnatildi hamda ular  
tomonidan 2 920 000 kVt  
elektr energiya ishlab  
chiqarildi. Natijada birgina  
joriy yilning 8 oyida 2 920  
mlrd so'm pul mablag'i  
tejashga erishildi.


Shuningdek, joriy yilda  
ham 2 850 kVt quyosh  
fotoelektr stansiyalari  
o'rnatildi. Shu orqali  
2024-yil yakuniga qadar  
1 758 mlrd so'mlik elektr  
energiyasini tejash  
kutilmoqda.

Ayni vaqtida oldimizda  
turgan eng katta vazifa  
kuz faslining iliq havoli  
kunlaridan oqilona  
foydalanish sanaladi.  
Maqsadimiz kuz-qish  
mavsumiga puxta  
tayyorgarlik ko'rish  
orqali mavsumni hech bir  
talafotsiz o'tkazishdir.

**Podpolkovnik Gulnora  
HOJIMURODOVA  
suhbatlashdi.**



O'n to'qqizinchi asr oxiri, yigirmanchi asr boshlarida ilm-fan va texnika rivojlanib, urushlarda o'qotar qurollar, portlovchi moddalar, jangovar mashinalar, telefon, telegraf qo'llanila boshlaganiga qaramay, xabarchi qushlar ham o'ta muhim vazifani bajargan. Ma'lumotlarga ko'ra, Birinchi va Ikkinci jahon urushlarda minglab qushlardan aloqa vositasi sifatida foydalilanilgan, ba'zi kabutarlar hatto maxsus mukofotlar bilan siylianib, ularning nomi tarixga kirgan.



# XABARCHI QUSHLAR

## Birinchi va Ikkinci jahon urushida

### TAXMINLAR

Kabutarlarning har qanday sharoitda iniga yo'l topishi borasida ko'plab tadqiqotlar o'tkazilgan bo'lsa-da aniq xulosaga kelinmagan. Qushlarning to'g'ri yo'lni topishi haqida bir necha taxminlar mavjud.

Olimlarning fikriga ko'ra, qushlar magnit maydonlarini sezadi. Ularning bu sezgi a'zosi tumshuq ostida joylashgan bo'lib, shu orqali manzilni bexato topadi.

Taxminlardan yana biri quyosh va yulduzlar joylashuvini orgali kerakli yo'nalishni aniqlaydi. Yana bir fikrga ko'ra, atmosferada uzoq masofalarga tarqaladigan 10 Gs dan kam chastotali infratovush tebranislari qushlarga yordam beradi.



### 15 YIL XIZMAT QILGAN

O'tkir ko'z, kuchli xotiraga ega, 300 metr balandlikkacha soatiga 70 kilometr va undan yuqori tezlikda uchadigan kabutarlar Birinchi jahon urushida qulay aloqa vositasi hisoblangan. 1 000 kilometrdan ortiq masofaga uchib bora oladigan harbiy aloqa kabutarlari 15 yilgacha qo'shinlar xizmatida bo'lgan.

O'sha yillarda yaratilgan aloqa qurilmalari bilan 3 kilometr, radioaloqa bilan 5 kilometrgacha xabar yetkazish mumkin edi.

### AMERIKADAN YEVROPAGA

1895-yilda tajriba sifatida Amerika qirg'oqlaridan uchirilgan kabutarlardan biri 3 ming km.dan ortiq masofani bosib o'tib, Yevropa qit'asiga sog'-omon yetib borgan. Uning modasi Yevropada ekanligi nar kabutarning adashmay qaytishining sabablaridan biri etib ko'rsatiladi.

### FOTOSURATCHI QUSHLAR

Yigirmanchi asr boshlarida aviatsiya endigina paydo bo'lgan davrda nemis dorishunosi havaskor fotosuratchi Yuliy Gustav Noybronner g'aroyib ixtiroga qo'l urdi. U dori-darmonlarini Kyonishteyn shahrida joylashgan sanatoriyaga kaptarlar orgali yetkazardi.

Bir kuni Noybronner kabutarini shoshilinch buyurtma bilan uchirib yuboradi, ammo oradan bir necha kun o'tsa ham qushdan darak bo'lmaydi. Dorishunos kaptar bir falokatga yo'liqsan, degan o'yga borib uni unutadi. Oradan kunlar o'tib, yo'qolgan xabarchi kutilmaganda qaytib keladi. Qush och qolmagan, aksincha ko'rinishi durkun edi.

Noybronner o'ylab o'yiga yeta olmaydi: kabutar qayerda edi, uni kim boqdi?

Bu savollariga javob topish uchun uning xayoliga bir fikr keladi. Havaskor fotosuratchi kamar yordamida kaptarning ko'kragiga mitti yog'och fotokamerani mahkamlab, navbatdagi buyurtmani manzilga jo'natadi. Fotokamera belgilangan vaqt oralig'ida avtomat ravishda surat olishga mo'ljalangan edi.

Dorishunosning maqsadi kaptar qayerda qolib ketganini bilish edi, xolos.



Kabutar 30 ga yaqin qoyilmaqom suratlar bilan qaytib keladi. Bu suratlarning aksariyati nemis restoranlaridan birida olingan edi. Pochtachi kaptarning restoran oshpaziga o'rganib qolgani ma'lum bo'lsa-da, dorishunos bunga parvo qilmaydi. Aksincha kabutarlarga biriktiriladigan turli xil kamera modellarini yaratishni boshlaydi.

Yuliy Gustav Noybronner ixtirosiga patent olish uchun ariza berganida, patent idorasini ma'murlari kabutarlar kameraning og'irligiga bardosh bera olmasligini aytib, uning arizasini rad etadi. Yuliy ushu ixtirosi bilan bir qancha xalqaro ko'rgazmalarda qatnashganidan keyin shuhrat qozonadi.

Ko'p o'tmay, uning ixtirosidan Birinchi jahon urushida foydalana boshlaydilar.

### YUZ MINGLAB KABUTARLAR

Birinchi jahon urushi davrida deyarli barcha davlatlar qo'shinlarida kaptar aloqalari tashvich qilingan edi. Maxsus tayyorgarlik bosqichidan o'tgan qushlar alohida jihozlangan arava yoki mashinaga joylashtirilardi. Turg'un kaptar stansiyalarining diapazoni 500 km, ko'chmalari esa 150 km.gacha bo'lgan hududda jangovar vazifalarni bajargan.

Birinchi jahon urushi jabhalarida harbiy aloqa uchun

minglab qushlar jalb qilingan deyiladi. Muhim xabarlar bo'yи 16,5 sm, eni 6,5 sm bo'lgan qog'oz parchasiga yozilib, temir naychaga joylanar va kabutarning oyog'i yoki quyrug'iga mahkamlanardi. Ma'lumot aniq yetib borishi uchun tabiiy ofat yoki dushmanning ovchi qushlari hamlasi inobatga olinib, bir vaqtning o'zida 3 ta kabutar manzilga jo'natilgan.

Urushning oxirgi yillarida ittifoqchilar - Britaniya, Fransiya va Amerika Qo'shma Shtatlari qo'shinlarida 400 mingga yaqin xabar tashuvchi kabutar, Germaniya qo'shinlarida esa 150 mingga yaqin pochta qushlari bor edi. Ma'lumotlarga ko'ra, urush davrida inglizlar va fransuzlar odamlarning 65 mingga yaqin shaxsiy kabutarlarini janglarga jalb qilishgan.

### 1918-YIL. VERDUN JANGI

1918-yil 3-yanvarda Germaniya hududiga kirgan 500 nafar amerikalik askar qurshovda qolib, uzoq davom etgan jangdan keyin o'q-dorilari, oziq-ovqati tugab, nochor ahvolga tushadi. Ularning ixtiyorida 4 ta xabarchi kaptar bor edi. Qo'mondon dushman koordinatalarini ko'rsatib artilleriya yordamini so'rab birinchi kabutarmi uchiradi. Qush manzilga yetib boradi,

ammo artilleriya o'z askarlari pozitsiyalarini o'qqa tuta boshlaganidan keyin qo'mondon ma'lumotda jiddiy chalkashlik bo'lganini sezib, ikkinchi, biroz vaqt o'tib uchinchi kaptarni otishni to'xtatish kerakligi haqidagi xabar bilan uchiradi. Ko'kka ko'tarilgan kabutarlarni ko'rgan dushman ularni birin ketin otib, qo'fga oladi.

To'rtinchı kaptar oxirgi imkoniyat edi. Nihoyat u ham aniq ma'lumotlar bitilgan xabar bilan parvozga chiqadi. Uning laqabi Cher A (Yoqimli do'st) edi. Dushman Cher Ani ham o'qqa tuta boshlaydi. Biroq mo'jiza yuz berib, panjas, ko'kragi va ko'zidan jarohat olsa ham kabutar chap oyog'iga mahkamlangan xat bilan ittifoqchilar pozitsiyalariga yetib boradi.

Xabarda quyidagi so'zlar yozilgan edi:

"Biz 276,4 balandlikda, yo'l yoqasida joylashganmiz. Artilleriyamiz to'g'ridan to'g'ri bizga otmoqda. Zudlik bilan otishni to'xtating!"

Ko'p o'tmay artilleriya "jim" bo'ladi, ittifoqchilar yordamga yetib keladi. Ammo 500 kishidan 194 tasi tirik qolgan edi.

Shifokorlar najotkor kabutar Cher Aning hayotini saqlab qolish uchun ko'p urinadilar. Yoqimli do'st yana bir yil yashaydi.

Verdun jangida 12 ta muhim xabarni manzilga yetkazgan Cher A o'lganidan keyin Amerika pochta kaptarları jamiyatining oltin medali va Fransiya harbiy xochi bilan taqdirlanadi.

Uning qotirilgan jussasi hozir ham AQShdagi Smitson institutida saqlanadi.

#### MUHIM CHORALAR

Ikkinci jahon urushi boshlanishi bilan unda qatnashayotgan barcha davlatlarda kaptarlar xizmati tashkil qilinadi. Sobiq Ittifoqda kaptar safarbarligi o'tkazilib, aholidan minglab qushlar musodara qilinadi. Ular qisqa muddatlarda xabar tashishga o'rgatiladi va front jahalariga jo'nataladi.

Britaniyaning razvedka boshqarmasi keng ko'lamli "Kolumba" operatsiyasini ishlab chiqadi. Unga ko'ra, Yevropaning bosib olingan hududlari ustidan maxsus o'rgatilgan xabarchi qushlar solingen qafaslar tashlanib, mahalliy aholidan dushman haqida razvedka ma'lumotlarini jo'natisch so'raladi.

Sovet va Germaniya qo'mondonliklari urush maydonlarida xabar tashuvchi kaptarlar bilan bog'liq vaziyatlarni qattiq nazoratga olish uchun jiddiy choralar ko'radi. Xususan, 1941-yil dushman qo'shinlari Moskvaga yaqinlashganda, shahar komendanti aholidagi mavjud kabutarlarni politsiya bo'limiga topshirish to'g'risida buyruq chiqaradi. Unda shunday yozilgan edi:

"Xususiy shaxslar tutgan kabutarlardan dushman foydalanishiga yo'l qo'ymaslik uchun buyruq beraman: uch kun ichida barcha kaptarlar Moskva shahar politsiya boshqarmasiga Petrovka, 38-uya topshirilsin. Belgilangan muddatda kaptarlarni topshirmagan shaxslar urush davri qonunlariga ko'ra javobgar bo'ladi".

#### QAHRAMON KABUTARLAR

Ikkinci jahon urushi kaptar pochta omavviy ravishda qo'llanilgan so'nggi qurolli to'qnashuv bo'ldi. Bu urushda ingizlarning 32 ta kaptari medallar bilan mukofotlandi. Ulardan biri "Meri Eksterskaya" laqabi bilan mashhur, yana biri "Kommando" nomi bilan. Kommando fashistlar bosib oлган Fransiyaga bir necha muhim parvozlarni



#### POLKOVNIK KABUTAR

Kabutarlar qo'shinlarga shoshilinch xabarlardan bilan birga aniq razvedka ma'lumotlarini ham yetkazishardi. Jang taqdirlarini hal qiladigan xabarlarni yetkazgan bir necha qushlar orden va medallar bilan taqdirlangani haqida ma'lumotlar mavjud.

Ularning eng mashhuri Britaniya qo'shinidagi № 888 nomli pochta kaptari bo'lib, u yuzlab muhim xabarlarni manzilga yetkazgan. Navbatdagi o'ta muhim jangovar topshiriqni bajarayotib halok bo'lgan bu kabutarga inglizlar polkovnik unvonini berib, g'alati tuyulsa da, bu unvonga muvofiq rasmiy sharaf bilan dafn qilganlar.

#### HAR IKKI JAHON URUSHIDA QATNASHGAN KABUTAR

Germaniya qo'shining pochta kaptari - "Kayzer" 1918-yil amerikaliklar tomonidan qo'fga olinadi. Urush tugagunga qadar mahbus qushdan naschlilik uchun foydalaniolib, 100 dan ortiq harbiy kaptar



#### O'T QO'YUVCHI KAPTARLAR

Urush maydonlarida kaptarlardan samarali foydalanish maqsadida bir necha tajribalar o'tkazilgan. Rossiya Qurolli Kuchlarining xizmat itlarini tayyorlash markazidagi muzeysida saqlanayotgan bir hujjat bundan darak beradi. Bu hujjatda kaptarlarning yondiruvchi snaryadlar kassetasi aviatashuvini amalga oshirish tavsifi bayon qilingan. Bosimli yondiruvchi snaryad o'rnatilgan kabutarlar jangovar samolyotlarning qanotlariga osilgan havo bombalariga, shuningdek, stasionar va harakatlanuvchi yonilg'i baklariga qo'nishga o'rgatilgan. Qush obyektga qo'nganida maxsus mexanizm ishga tushar va kaptar bazaga qaytardi.

Urush haqidagi manbalardan birida raqib uchuvchisi bir qushning o'z samolyotiga qo'nishga urinayotganini shunday hikoya qiladi: "Men bu yomon belgi deb o'yladim. Ko'p vaqt o'tmadi, yoqilg'i baki o't olib, jiddiy xavf paydo bo'ldi. Zo'rg'a sakrab qutildim. Keyin menga ruslar o't qo'yuvchi kaptarlardan foydalanganini aytishdi".

#### Keyingi sonda

Xabarchi qushlar haqida bugun - XXI asrda nima gaplar bor?

Bu savol ko'pchilikni qiziqitrsa kerak, albatta.

Gazetaning keyingi sonida shu haqda o'qishingiz mumkin.

Furqat ERGASHEV,  
"Vatanparvar"

# Kul bosqan

Volidayi muhtaramam  
Boqiyaxon Rahmonberdi qizining  
yorqin xotirasiga bag'ishlayman.

# cho'g'lap

*Kitob varaqlaydi saksoningiz ham,  
Sasingiz sehrini suyib kelar Haq.  
Avliyo degani Sizdirsziz, onam,  
Sizdaylar jamlansa yaraladi xalq...*

\*\*\*

1931-yil kuz. Andijonning Eski shahar hududi. Yozning otash issig'i singan, qishning qora sovug'i hali yetib kelmagan bu mayin faslda jamiki mevalar-u poliz ekinlari pishib bozorlarni to'kin qiladi. Kuzning yuvosh gullari to'p-to'p bo'lib ochiladi. Kuz gullari... Ular husniga mag'rur, xaridori ko'pligidan masrur bahor gullaridan farq qiladi. Kamtarmi, xokisormi... har qalay mo'mingina bo'lib ochilib turadilar. Mevalari pishib, vazifasi yengillagan bog'lar yaproqlari sarg'ayib bag'rini tark eta boshlagan chog'i... o'ychan tebranadi. Tebrangani sari bag'ri bo'shayveradi. Kechagina yashillanib turgan barglari ila durkun daraxtlarning bugun miskindildek jimgina turishi ham sokin kuzning fe'l-u fazilatidan. Yaproqlar to'kilaveradi. Yer bag'irlayotgan hazonlar qalinlayveradi. Kechagina ko'zni yashnatgan zavqing bugun oyoq ostida ekani dilni biroz sindiradi:

*Ma'yusgina kezaman xazon to'la bog'larni,  
Ruhiyatim sokinlik qurshovida qiyinalar.  
Shiwraydi xazonlar eslab yashil chog'larin,  
Jimplikka so'nggi kuyin to'kib o'tar turnalar.*

\*\*\*

Asr namozi taraddudi uchun hujrasidan chiqqan Qori dada hovli sahnini xazon bosib ketganini ko'rib ko'ngli g'ashlanganday bo'ldi. Avval bu taxlit xazon to'kilishiga ahamiyat bermaganmi yoki juda sarishtali bo'lgan rahmatli ayoli tushganki hazonni supurib-yig'ishtirib olarmidi. Har holda bu chog'roqning hovli sira hozirgiday fayzsizga o'xshamagan. Ayolining vafotidan keyin ko'ngli sinib, yolg'izlangani tobora sezila boshlagan Rahmonberdi qoriga hovli sahni shu lahzada ko'rkamligi yo'qolganday ko'rindi. Nigoji qiyndaldi. "Uy fayzi ayol bilan ekan-da", degan fikr o'tdi ko'nglidan.

*Yo'lyo'qotgan xayollar kezishadi besamar,  
Nigojlarim urilar yetim qolgan butoqqa.  
Eng og'iri, og'iri, qadamlarim qiyinalar,  
Kechagi zavqlarimni bugun bosib*

yurmoqqa.

Salgina avval qo'shni o'rtoqlari bilan ingichka cho'paklardan qo'g'irchoq yasab unga qiyqim matolardan libos kiydirib o'ynayotgan qizi Boqiyaxonning ham chehrasi ma'yusday ko'rindi ko'ziga.

- Boqibillo qizim, o'rtoqlaringiz chiqib ketishdimi?  
- Buvisi dastyor qizim deb chaqirib qoldi. Menam buvimni (*Andijonda onani buvi deydi*) sog'indim.  
- Sizga bir gap aytaymi?

Ko'zlar yoshlanay deb turgan qizaloq dadasiga xuddi uning buvisini topib beradiganday umidvor qaradi.

- Siz ham xuddi o'rtog'ingiz kabi xazon to'kilgan sahni supurib dastyor qiz bo'ling. Shunda rahmatli bivingiz xursand bo'ladi.

- Buvim ko'radimi?

- Albatta. Axir buvungiz bor-yo'g'i Xudoning huzuriga ketdi, xolos. Bizni ko'rib, kuzatib turadi. Dastyor qizim hovlini sarishta qilyapti, deb minnatdor ham bo'ladi. Siz dastyor qiz bo'lib turing. Ungacha men namozimni o'qib chiqay, xo'pmi?

- Xo'p.

Boqiyaxonning yuzidagi xafalik tarqagandan bo'ldi. Tezgina borib ayvonda turgan supurgini oldi. Bir qo'liga og'irlik qildi chog'i qo'sh qo'llab ushladi-yu hovlini supura ketdi. Suvি oqib turgan ariq labidagi xas-xashakni ariqqa oqiza qoldi. Ariqcha xazonaga to'ldi.

- Hay-hay, Boqibillo, nega supirindini ariqqa oqizyapsiz, qizim? Yomon bo'ladi, - keskin gapirdi hujradan chiqib qolgan dadasi.

- Qanaqa yomon bo'ladi?

- Axir bu suvdan o'zimiz ichamiz, ariq qo'shnining hovlisiga o'tadi, ular ham ichadi. Axlat oqqan suv makruh, harom deyiladi. Oqar suvning shifobaxshligi esa qolmaydi.

- Suv shifobaxshmi, dada?

- Albatta. Bizdan ikki mahalla naridagi katta hovuzdan keladi bu suv.

- Hovuzdan kelsa nima bo'ladi?

- Bilsangiz, hovuzda baqalar ko'p, vaqillab suzib yurishadi. Baqaning ko'zidan esa malham yod chiqib suvni dorivorga aylantiradi. Malham yodli suvni ichganlar bo'qoq kasali bo'lmay sog'lam yurishadi.

- Qaydan bilasiz, dada?

- Dadam, ya'ni sizning Abdurazzoq bobongizdan qolgan Abu Ali ibn Sinoning katta kitobidan o'qiganman.

- Abu Ali ibn Sino?

- Ha, u kishi dunyoga mashhur tabib bo'lganlar. Kitobida kasal bo'lmastikning juda ko'p sirlarini yozib qoldirganlar. Odamlarimizning har ikki uch mahallaga hovuz qazishib, hovuz suvidan foydalanishlari shundan.

Qori dada qiziga tushuntirganidek, Andijon shahrining Orziqulbekguzar, Cholguzar kabi ko'plab hududlarida katta-katta hovuzlar bo'lib, ularda rostdan ham baqalar ko'p ekan. Hovuzlarning uch tarafidan kichik ariqlar bo'yab uch mahallaga suv taralar, atrof xonadonlardagi kichik ariqlardan hovuzning yodlangan suvi oqardi. Donishlarning fikricha, baqalar ko'zidan ajralib turadigan yod aholi ichadigan suvning shifobaxshligini ta'minlab turarki.

Xonodon egalari hovlisidan o'tayotgan ariq bo'yalariga gul-u rayhonlar ekadilar. Va bu ro'zg'or rezavorlari ham osh-ovqatni xushxo'r qiladi, ham hovliga chiroy berib, havoni tozalab turadi.

Qanday kitob o'qimasin, uni mushohada bilan uqib o'qishga harakat qiladigan Qori dada kitobdan ibrat olishni ham o'rniga qo'yardi.

Hovli chetrog'idagi shotut mevasini yegan odamning qon bosimi baland bo'lsa, tezda tushishi, nokka shakldosh bo'lgan noyob olmurut mevasi esa tomoq og'rig'i, anginaning zo'r davosi ekanligi unga ma'lum edi. Shu atrofdagi aholining aksariyati tomoq og'rig'idan aziyat cheksa avval tabibga emas, olmurut istab qolishlari uchun ham bu daraxtlarni mehr bilan parvarish qilardi.

Rahmonberdi ota har yili o'z qo'rg'on devori yonboshiga tomoshaqovoq ekardi. Har xil shaklda pishadigan tomoshaqovoq toshday qattiqligi bois sinishi qiyin, yeb bo'lmasa-da, undan dutor, rubob va yana turli shakldagi idishlar ham yasash mumkin edi. Odamlar undan yasab olgan idishiga aksariyat qatiq ivitishardi. Tomoshaqovoq tarkibidagi foydal ma'danli moddalar bilan omuxtalangan qatiq buyrak kasali uchun shifo ne'mat sanalishini ham Qori dada hazrat tabib kitobidan o'qigan edi.

Bu taxlit idishlarning tarkib mohiyatini, sir-sinoatini hamma ham bilmasligi mumkin, ammo har bir xonadonda qatiqni shunday idishga ivitish odatga aylangandi. Rahmonberdi ota o'smir paytidada Abdurazzoq qoridan eshitgan bir rivoyatni sira esdan chiqarmasdi.

Bir qishloqda juda mashhur tabib bo'lib, uning tekkanga tegib, tegmaganga kesak otadigan dilozor o'g'li bor ekan. Bu o'g'li ko'chadan o'tganki odam - yoshmi, keksami, bariga ozor berar, ba'zan urib qochar, ba'zan devorga chiqib, kesak otib zavqlanar ekan. "Otasi mashhur tabib, ishimiz tushadi" degan andisha bilan hali g'o'r, atigi o'n yoshli bu dilozorga hech kim javob qaytarmas, urib adabini berishdan o'zini tiyarkan.

Bir kuni u yana pastdevorga minib, ko'chadan o'tayotgan bir otliq odamga kesak otibdi. Kesak tekan ot hurkibdepsinganida yiqilishiga bir banya qolgan otliq shartta pastga tushibdi-yu bolakayni tutib olib quloch-chakkasiga ikki shapaloq tortibdi. Yuzi, qulog'i qizarib joni og'rigan bola yig'lab shunday debdi:

- Mening otam mashhur tabib. Bir kuni mening otamga ishingiz tushib kelarsiz. O'shanda uyga kirkizmayman.

- Otangga aytib qo'y, unga ishim tushmaydi. "Haftada bir, oyda bir, yilda bir", debdi-yu, otiga minib, yo'liga ravona bo'libdi.

Bola yig'lagan ko'yi otasiga borib, bu voqeani aytibdi.

- Bolam, u odam haftada bir kun ro'za tutarkan, oyda bir marta bug'li hammom qabul qilarkan. Yilda bir marta mevalarni, ziroat ko'katlarini to'yib yerkan. Bu odamning sog'lam yurishi, tabibga ishi tushmasligi rost, degan ekan.

Rahmonberdi shundan buyon qori otasi aytgan bu rivoyatning mazmun-mohiyatiga amal qilib, tut vaqtida tutga, ko'k vaqtida ko'kka to'yishni odat qilibdi. U bot-bot bu gapni ayoli va bolalariga ham tayinlarkan. Rahmatli ayolining tutni yaxshi ko'rib yeyishidan xursand bo'lib, oq bo'z matosidan kattakon choyshab ham tiktirib qo'yanan ekan. Ayoli esa bahorni intiq kutar, tut pishdi deguncha "tut qoqdii" qilaylik, deb izn so'rarkan.

- Bo'pti. Bo'lmasa, qo'ni-qo'shnilarini ham chaqiring. Men zarur ish bilan uzoqroq ketaman, bemalol tut



saylini o'tkazib olinglar. Abdulazizga tayinlab ketaman, saboqdan kelib tut qoqib beradi, – desa xursand bo'lib ketardi rahmatli ayoli. Qori dada ko'nglidan kechgan bu xotiralardan keyin ayolini ham, o'sha "tut qoqdi"larni ham sog'inganini his qildi.

O'shanda atrofdagi hamma qo'ni-qo'shnini "tut qoqdi"da bir to'plab tutga to'yishardi. Abdulazizjon daraxtga chiqib, dadasi tol novdasidan yo'nib bergan kaltak bilan tut qoqsa, xotin xala-ju bola-baqra choyshab tutardi. Har biri bosh barmoqday keladigan marjon tut "duv-duv" to'kilgani sari choyshab tutganlarning qiy-chuvi balandlardi. Zap "tut sayli" bo'lardi o'ziyam. Yosh qizlar ochiq ayvonni "xol-xol" (shakarobdir?) suv sepib supurib, dahligza yoyilgan sholchani olib chiqib ayvonga solishardi. To'rt tarafiga ko'rpara to'shab o'rtaga marjon tut bilan og'irlashib turgan oq bo'zni shundoq yozardila-ru, choyshab to'la tutdan kim piyolaga, kim kosaga, yana kimlar likopchaga solib yeye boshlardilar. Tut bahona, diyordorlashib olgan ayollarning olacha (?) majlisi qizib ketardi.

– Qishdan ilik uzildi bo'lib chiqqan paytimizda zap "tut sayli" qilasizlar-da, baraka toping, qo'shni.

– Marjon tut ko'p dardga shifo deydilar, kattalarning "elni qish qahatidan tut pishig'i qutqaradi, degan gapi bejiz emas-da, aylanaylar...

– O'ziyam tut g'o'ralagandan boshlab qachon Buvinisoning qizi Boqiyaxon eshikma-eshik chopqillab "tut qoqdi"ga chaqiradi, deb kutadigan bo'lib qolganmiz.

– Qori dadaning bir parcha bo'sh yeri bo'lsa unga nimadir ekishni mo'ljallaydigan yaxshi odati bor, – eri bilan maqtangisi kelib gap qo'shardi Buviniso aya. – Do'st-u yorlarni chaqiring deb shu kishi aytadilar-da. Iloho umrlari uzun bo'lsin. Qo'li dard ko'rmasin.

Hamma qo'l ochib, Qori dadani duo qilardi.

\*\*\*

– Supurib bo'ldim, dada, – dadasi kitob o'qib o'tirgan hujranning ostonasidan hatlamay dedi Boqiyaxon.

– Barakalla. Hovli sahnini sarishtalab qo'yibsz, Boqibillo. Men xursand bo'ldim, bivingizning ruhi shod bo'ldi endi, qizim. Endi qo'g'irchog'ingizni o'ynayvering. Halizamon Abdulaziz akangiz kelib, kechki taom tayyorlasa, uchov birga ovqatlanamiz.

Abdulaziz Boqiyaxonning o'zidan besh yosh katta akasi. U mudarris Muhammadali amakisidan ilm o'rganadi. "Haftiyak"ni tugatib, Qur'on ham xatm qilib bo'lgan o'n to'rt yoshli bu o'spirinni onasining vafoti birdan ulg'aytirib qo'ysi. Dadasi va singlisining osh-ovqati-yu uy yumushlariga o'z-o'zidan mas'ul bo'lib qolgani bois, Abdulazizning shu kunda saboq olishi ham

ancha sekinlagen, dars olishga saboqdoshlaridan anchal kech borib, erta qaytadigan bo'lib qolgandi.

Shu payt har xil uchta taxtadan beo'xshovgina yasalgan bir qanotli darvoza "g'iyq" etib ochildi.

– Assalomu alaykum, keldim, dada, – dedi shoyi chorsiga o'ralgan kitobini tokchaga qo'yarkan Abdulaziz.

– Bugun amakim bilan mahalladan bir-ikki kishi biznikiga kelisharkan, osh damlay qolaymi?

– Amakim, yana bir ikki mehmon deysizmi? Nima munosabat bilan kelisharkan o'g'lim, tinchlikmi?

– Bilmadim. Maslahatlari gap bor dedilar, xolos.

Shomga yaqin Abdulaziz aytganday Muhammadali mudarris mahallaning boobro' kishilaridan bira Sultonali bilan Qori dada ziyyoratiga kelisharkan.

Kechki ovqatni birgalashib tanovul qilganlaridan so'ng choy ichib o'tirib Sultonali gap boshladi;

– Ustoz, bilasiz, masjidimiz Andijondagi nufuzli, katta dargohlardan hisoblanadi. Unga imomlik qilish mas'uliyati oson emas. Bir guruh ilmli do'stlarimiz shu mas'uliyatlari vazifani yana o'zingiz bajarishingizni xohlashyapti... Faqat...

Sultonali "faqat"ning davomini aytolmay to'xtab qoldi.

– Tushundim, – salmoqlab so'zladi Qori dada. – Ammo imomlikning talablari, jozliklari bor demoqchisiz. Imomlikni bajaruvching ilmi, tajribasidan tashqari oilasi butunligi ham zarurat sanaladi. Zavjamizning vafot etgani elga ma'lum. Qolaversa, ikki farzandimning tarbiyasi, qarovi bilan andarmon bo'lib turibman. Shu sababdan imomlikka boshqa nomzod qidirganingiz ma'quil.

– Biz aynan shu muammoni hal qilish maqsadida keldik-da, aka, – so'zni ilib ketdi inisi Muhammadali mudarris. – Ayol kishi beva qolsa o'zini-o'zi uddalashi mumkin. Ammo erkak kishiga bevalik qiyin kechadi.

– Andishani biron qo'ying-da, maslahatimizni rad etmay uylaning, ustoz. Bolalariningiza ham, namozxon do'stlarga ham yaxshi bo'ladi. Sizdek islom ilmi yetuklari turganda boshqa birov elga imomlik qilishga jur'at topmaydi, buni o'zingiz ham bilasiz, – Sultonali gapni puxta qildi.

Xullas, o'sha suhbatli kelishuv va birmuncha harakatlardan so'ng katta Jome masjid madrasasining orqa mahallasida yashovchi, Ro'ziboy halfa nomi bilan tanilgan ilmli bir odamning islom ilmida anchal zukko Oyshaxon ismli beva qizini Abdulaziz va Boqiyaxonga kichik ona qilib olib keldilar.

\*\*\*

1932-yil. Andijon. Hakan qishlog'i. Qatag'on izg'irinlari odamlarning yuz-ko'zini ochirmay qo'yan kunlar. Sho'rolar hukumati aholining ziyoli qatlamiga qo'shib islom ilmi peshvolarini ham quloq qilib, "qama-

qama"ga solgan, o'ziga to'q odamlarning mol-mulkini musodara qilib, kolxozi tuzila boshlagan payt.

Hakanning yerli boylaridan hisoblangan Abdulaziz qori bir necha o'zi kabilar bilan maslahatlashib, hukumatga bildirmay haj safariga borishni rejalashtiradi. Uyga kelib shom namozini o'qib, kechki taomlanishga o'tirgach, ayolini bundan xabardor qilib dedi:

– O'zingiz bilasiz, Sho'ro hukumati gektar-gektar yerlarimizni musodara qilib kolxoza qo'shdi. Quloq qilish, qamoq, surgun degan vahimalardan ham xabardorsiz. Meni ham bir bahona bilan hibsga olishi yo surgun qilishi bor gapga o'xshaydi.

– Men-chi ikki bolam bilan... o'zim shu holatda, – homiladorligiga ishora qildi Sharofatxon. – Sizsiz qandoq qilaman? Davlatxon qizimiz olti yosh, Abdumannob esa endi uchg'a kiraypti.

– Shuncha boyligimizni olgan hukumat sizni och qoldirib qo'ymas. Bir kuni albatta qaytishga harakat qilaman. Yurtda tinchlik ham bo'lib qolar. Qolaversa, Hakan to'la qarindoshlarimiz.

Erini olis safarga ovozasiz jo'natgan Sharofat kelin nikoh to'yida mahriga berilgan bir nechta tilla taqinchoqlarini qanday saqlash haqida o'ylanib, hovlisining bir taraf qo'rg'on devori orasiga yashirish uchun uzoqroq qarindoshining o'g'lini ishg'a soldi. Devor orasiga joylab ustidan yoppa suvoq qildirdi. Ammo uch kun o'tib devorni suvab bergen usta yigitning o'zi bu taqinchoqlarni o'g'irlab, boshqa joylarga ketib qoldi.

Qashshoqlanib ilojsiz qolgan yigirma bir yoshli Sharofatxon to ko'zi yoriguncha yangi qoidaga ko'ra, kolxoza ishladi. Balolari bilan hukumat o'zlariga qoldirgan ozgina tomorqada dehqonchilik qilib, o'chog'ining olovini o'chirmadi. Boshga tushgan qiyinchiliklarni "yurtga kelgan to'y" qabilida sabr bilan yengishga intildi. Safarga ketgan eri va qaynog'asining bir kuni qaytishi, hayoti yana yaxshilanib, oiladagi "ham erkak, ham ayol" bo'lish mashaqqatidan qutulishni umid qilib yashayverdi. Oy kuni yetib tug'ilgan o'g'liga "dadasining yo'li yorqin bo'lib tezroq qaytsin" degan istak bilan Yorqinbek deb ism qo'ydi.

(Davomi bor).

**Zamira RO'ZIYEVA,  
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi**

# “E-saylov” axborot tizimi

Saylov jarayonlarini tashkil qilishda “E-saylov” axborot tizimidan foydalaniladi.

Markaziy saylov komissiyasi; Qoraqalpog'iston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi; viloyatlar va Toshkent shahar hududiy saylov komissiyaları; tuman, shahar saylov komissiyaları; siyosiy partiyalar; Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar, Toshkent shahar hamda tuman va shahar Kengashlari; Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, Toshkent shahar hamda tuman va shahar hokimliklari; Tashqi ishlar vazirligi; xorijiy va xalqaro kuzatuvchilar; xorijiy, xalqaro

va mahalliy ommaviy axborot vositalari; fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari; deputatlilik nomzodlar va ularning ishonchli vakillari **“E-saylov” axborot tizimidan foydalanuvchilar hisoblanadi.**

Tizimdagi so'rovlari (*arizalar, taqdimnomalar, tavsiyalar*) tasdiqlangan shakllardan birini to'ldirish orqali amalga oshiriladi.

Deputatlilik nomzodlar va ularning ishonchli vakillari shaxsiy kabinetga SMS-kod kiritish orqali kirishi mumkin. Qolgan barcha foydalanuvchilar ERI(*elektron raqamli imzo*) kalitiga ega bo'lishi kerak.

Kelib tushgan so'rovlari tegishli saylov komissiyaları tomonidan ko'rib chiqiladi va ular bo'yicha qabul qilingan qarorlar avtomatik ravishda tizim orqali foydalanuvchiga yuboriladi.

## Saylov byulleteni

Qonunchilik palatasi deputatlari va mahalliy Kengashlar deputatlari saylovi bo'yicha saylov kampaniyasi boshlanganligi ularning vakolatlari muddati tugashidan

**kamida uch oy oldin** Markaziy saylov komissiyasi tomonidan **ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi.**

Ommaviy axborot vositalari vakillarining vakolatlari Markaziy saylov komissiyasi, hududiy, tuman va shahar saylov komissiyaları tomonidan berilgan hujjatlar bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak. Boshqa davlatlarning ommaviy axborot vositalari vakillarini Markaziy saylov komissiyasi akkreditatsiyadan o'tkazadi.

## Saylov kampaniyasi

Qonunchilik palatasi deputatlari va mahalliy Kengashlar deputatlari saylovi bo'yicha saylov kampaniyasi boshlanganligi ularning vakolatlari muddati tugashidan

**kamida uch oy oldin** Markaziy saylov komissiyasi tomonidan **ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi.**

O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi deputatliligiga nomzod va mahalliy Kengashlar deputatliligiga **nomzod ko'rsatish huquqiga siyosiy partiylar ega.**

**Mudofaa vazirligi Tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bosh boshqarmasi**

## Malaka

# Nazariy bilim mustahkamlandi

Toshkent temiryo'l bekti va shoxobchasi harbiy harakatlar tarkibiy bo'limi hamda Toshkent garnizonida joylashgan harbiy qism shaxsiy tarkibi hamkorligida “Chirchiq” dala-o'quv maydonida harbiy texnika va harbiy yuklarni temiryo'l platformalariga yuklash-tushirish bo'yicha amaliy-ko'rgazmali mashg'ulotlar o'tkazildi.

Mashg'ulotlar turli o'quv nuqtalarida o'tkazilib, qo'shinlarni bir joydan ikkinchisiga ko'chirib o'tkazish, harbiy texnika va yuklarni tashishda foydalaniladigan temiryo'l vagonlariga ishonchli va mustahkam joylashtirish, saqlash va olib yurishni o'rnatish maqsadida tashkil etildi.

Toshkent temiryo'l bekti va shoxobchasi harbiy harakatlar tarkibiy bo'limi xodimlari tomonidan mashg'ulotlarda harbiy texnika va yuklarni tashish jarayonida



tayinlangan qorovul shaxsiy tarkibining majburiyati, turli xil vaziyatlardagi harakatlari va alohida xizmat o'tashning boshqa ahamiyatli jihatlari harbiy texnikalarni yuklashda zarur bo'ladigan anjomlar xususida tushuntirishlar berib o'tildi.

Mashg'ulotlar jarayonida asosiy e'tibor



texnika xavfsizligi talablariga va texnikalarni temiryo'l platformalariga yuklashda ehtiyyot choralariga rivoja etishga qaratildi.

Ko'rgazmali tarzda o'tilgan mashg'ulotlar doirasida zirhli hamda avtomobil texnikalarni platformalar orqali vagonlarga yuklash-tushirish, ularni belgilangan tartibda mahkamlash, texnikalarni tashishda niqoblash ishlari amaliy tarzda namoyish etildi.

**Sherzod EGAMBERDIYEV,  
“Vatanparvar”**





# USMON AZIMOV

O‘zbekiston  
xalq shoiri

## JANG QIL, BILA TURIB MAG‘LUBIYATNI

\* \* \*

O‘zingni ayama,  
Beshafqat bo‘lgin.  
Joningga solib tur gohida burov.  
Shunda  
Topiladi  
Xoin bo‘laging –  
Unga rahm qilma,  
Qatl et darrov.

O‘zingni ayama,  
Beshafqat bo‘lgin.  
Jang qil,  
Bila turib  
Mag‘lubiyatni.  
Shunda  
Chekinadi  
Sotqin bo‘laging –  
Mahv et sharmandani,  
Mahv et uyatni.

Mayda-mayda bo‘lma,  
Mudom butun bo‘l,  
O‘zingni o‘zingga qilmagin talosh.  
Bir tan bo‘l,  
Bir so‘z bo‘l,  
Bitta tugun bo‘l –  
Faqat bitta yurak,  
Faqat bitta bosh.

Ammo kurashlarda qurbanlik rasm,  
Seni tashlab ketsa,  
Sen sevgan hayot,  
Ming bitta tobutda taning yotmasin  
Do‘stlarining ko‘targan  
Bir tobutda yot.

### VATAN HAQIDA BAYTLAR

Botirlarning yuraklari ziyod bo‘lar,  
Yuraklardan el-u Vatan buniyod bo‘lar.

Mardlarning mard ishlarida ziyo bo‘lar,  
Mard ishlardan Vatan degan dunyo bo‘lar.

Fidokorning ko‘z yoshlari pinhon bo‘lar,  
Bu pinhonlik ichra Vatan osmon bo‘lar.

She‘r ko‘ngildir! Ko‘ngli bor yurt ulug‘ bo‘lar,  
Hatto ko‘ngli yarim ersa, to‘liq bo‘lar.

Nomardlardan yorug‘ dunyo nosoz bo‘lar,  
Mard insondan gulday Vatan meros bo‘lar.

\* \* \*

Bu dunyoga kelmadim, axir,  
O‘z nomimni yozmoqlik uchun.  
Mening nomim shamolda to‘zg‘ib,  
Yomg‘irlarda oqmoqlik uchun.

Saraton-u qahratonlarda  
Bola kabi yashayman o‘ynab –  
Peshonamga tushmaydi ajin.  
Mangulikka qolmoqni o‘ylab.

Qilmagayman vaqtga xushomad,  
Sovuraman qo‘lyozmalarni.  
Yomg‘ir yuvib ketar beshafqat  
Qalbimdag‘i kul yozmalarni.

Ko‘kragimda gullaydi mahzun  
Shu beega tuproqqa shafqat.  
O‘rgataman bo‘g‘zim, labimni  
“Vatan” so‘zin aytmoqqa faqat.

Men o‘laman – tobutda ruhim  
Xavotirdan turadi tikka...  
Vatan, senga bu tanho jonim  
Ulgurdimi qorishmoqlikka?

\* \* \*

...Olamda ko‘p erur ibora,  
Bir so‘z bor og‘riqdan iborat.  
U – Vatan! Barchinim, u – Vatan!  
Bolamga “Vatan” de ilk bora.

So‘zlagin eng yuksak tilakdan,  
Bo‘taday bo‘zlagan yurakdan.  
“Vatan” de... Bolamning qoniga  
Oqiblar kirsin u ko‘krakdan.

### TUSH

Gunohkorni eng odil hakam  
O‘ldirmoqqa ayladi hukm.  
...Ergashaman jallod ortidan,  
“Meni os”, deb qilaman zug‘um.

Qo‘riqchilar boqadi hayron,  
Hech kim menga demaydi: “To‘g‘ri!..  
Sen bir mo‘min, begunoh inson,  
O‘lishi shart, axir, u – o‘g‘ri!”

Javdirayman jallod qoshida:  
O‘ylab topgin biror bir imkon,  
Qop kiygizmay turgin boshiga,  
Uning uchun men berayin jon”.

“U – poraxo‘r”, deydi xaloyiq,  
Men o‘rtaga qo‘yib jonimni,  
Deyman: “Yo‘q, u yashashga loyiq,  
Qonun, to‘kkin mening qonimni”.

“U sevgisin sotdi”, qichqirar  
Bir ayolning qasoskor ko‘zi;  
Tiz cho‘kaman: “Singlim, muqarrar  
Buyuk nomzod o‘limga o‘zim!”

...Va tomosha chiqar avjiga,  
Endi qurbon kutmagay shafqat.  
Nog‘oralar zarbi mavjida  
Titray boshlar ufqda shafaq.

Bosh uraman dor og‘ochiga;  
– Meni o‘ldir, ozod bo‘lsin u!  
Shunda jallod kelar qoshimga:  
– Axir zarra gunohing yo‘q-ku!

– Aybsizligim – bir o‘limga teng,  
Men uchun ham jallod, dor qurgin,  
Hamma gunoh qildi – ko‘rdim men,  
Hamma gunoh qildi – jim turdim...



Shimoli-g'arbiy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondonligi hamda Nukus harbiy va shahar prokuraturalari bilan hamkorlikda garnizonda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish bo'yicha ko'rgazmali targ'ibot tadbiri bo'lib o'tdi.

Hozirgi kunda insoniyat taraqqiyotini energiyasiz tasavvur etib bo'lmaydi. Zero bugun barcha zamonaviy texnologiyalarning quvvat olishi uchun energiya kerak. Shu bois bugun energiyadan foydalanish hajmi sezilarli darajada ortmoqda. Bu esa ayrim hollarda uning yetishmovchiligiga sabab bo'imoda.

Ma'lumki, o'tgan asrning oxirgi o'n yilligidan boshlab energiyaning qayta tiklanadigan ekologik toza manbalarini - quyosh va shamol quvvatidan

foydalishga katta e'tibor qaratilmoqda. Chunki quyoshli kunlarga boy O'zbekiston zamini uchun bu ayni muddaodir. So'nggi yillarda mamlakatimizda energiya barqarorligini ta'minlash, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish, sohanai davlat tomonidan q'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish borasida dadil qadamlar tashlandi va salmoqli natijalarga erishildi. Buni hozirda yurtimizda qayta tiklanuvchi

energiya manbalarining elektr energiyasi ishlab chiqarish umumiyyatini hajmdagi ulushi qariyb 10 foizni tashkil etayotgani misolida ham ko'rish mumkin. Ammo mazkur yo'nalishda ulkan salohiyatga ega bo'lgan O'zbekiston uchun bu unchalik katta ko'rsatkich emas. Shu bois 2030-yilga qadar qayta tiklanuvchi energiya manbalarini quvvatini 27 Gigavattga yetkazib, elektr energiyasi ishlab chiqarish umumiyyatini hajmidagi ulushni 40 foizga olib chiqish muhim vazifa sifatida belgilangan.

Nukus garnizonida o'tgan tadbirda soha vakillari hamda huquqni muhofaza etish organlari xodimlari harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolariga yaqinlashib kelayotgan sovuq kunlarda xonodon va inshootlarni isitish uchun ketadigan gaz va elektr energiyasini sarflash ham davlatimizga, ham har bir fuqaroning byudjetiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tushuntirib o'tdi.

Shuningdek, mazkur masalaga aloqador bo'lgan

korxona va tashkilotlar vakillari tomonidan milliy mahsulotlarimiz bo'lmissiz gaz va elektr energiyani tejovchi asbob-uskunalar namoyish etilib, ularning afzalliklari haqida bergan batafsil ma'lumotlari ko'pchilik uchun qiziqarli bo'ldi. Quyoshdan muqobil elektr energiyani ishlab chiqaruvchi panellarni o'rnatishtida banklar tomonidan imtiyozli kreditlar ajratilishi haqida tushuntirishlar berilib, ularning xususiyatlari batafsil yorildi.



#### Inson qadri uchun

## OBYEKTLAR

## MAVSUMGA TAYYOR



Mamlakatimizning shimoliy hududlari odatda qishda juda sovuq ob-havo sharoiti bilan ajralib turadi. Shu bois bu yerlarda qish mavsumiga tayyorgarlik ishlariga ancha jiddiy yondashiladi.

Mudofaa vazirligiga qarashli Nukus garnizonida ham ushbu mavsumga shaylik ancha oldin, ya'ni yoz oylaridan boshlanib, harbiy shaharchadagi lavozim-xizmat uylari va hududagi umumta'lum va maktabgacha ta'lum muassasalarini, harbiy qismlar hamda boshqa ijtimoiy obyektlarda yashaydigan, xizmat qiladigan harbiy xizmatchilar va xodimlarni qishning qahraton sovug'idan asrash maqsadida mavsumiy ishlar yakuniga yetdi.

Jumladan, mazkur ishlarga mas'ul bo'lgan Nukus hududiy uy-joydan foydalanish qismi mutaxassislar tomonidan garnizondagi Markaziy qozonxonada DE 25/14 GM rusumli ikki barabani tabiy sirkulyatsiyali 4 ta qozon majmualaridan hammasi ayni vaqtida foydalanishga shay holatga keltirildi. Qozon

majmualari, suvni isitish uskunalarini hamda filtrlarga ko'rsatilgan texnik profilaktika evaziga bu yil ham qishki mavsumda belgilangan huduvida issiqlikni ta'minlash imkoniyati yaratildi. Shuningdek, mavsumga tayyorgarlik jarayonida mayjud bug' qozonlarining qo'shimcha uskunalariga zarur asbob-uskunalar o'rnatalib, 177 metr har xil diametrtdagi temir quvurlar qisman almashtirildi. Issiqlik gaz ventilyatsiya xo'jaligi tomonidan harbiy shaharchada joylashgan turli diametrlari eskirib qolgan 944

metr tashqi issiqlik quvurlarini yangisiga almashtirish ishlar tugatilib, ularni issiqlik saqlovchi qoplamalar bilan qoplash ishlarini yakuniga yetkazildi. Qolaversa, harbiy shaharchani ichimlik suvi bilan ta'minlaydigan bosh suv nasos stansiyasining faoliyatini uzluksiz ta'minlash maqsadida 780 metr uzunlikdagi tashqi ichimlik suvi quvurlari almashtirildi.

Isitish mavsumida harbiy shaharchadagi obyektlarda elektr toki bilan ta'minota uzilishlarning oldini olish

maqsadida soha mutaxassislarini tomonidan gaz taqsimlash punktlari va transformatorlarga texnik xizmat ko'rsatish ishlarini olib borilib, hududga 100 dan ortiq tejamkor yoritish chiroqlari va yuqori quvvatda ishlaydigan kabel o'rnataldi. Shuningdek, 1,5 km oraliqdagi oqova suvlarni chiqarish uchun mo'ljallangan diametri 500 mm bo'lgan yuqori bosimli kollektor, ikki dona oqova nasos stansiyasi kapital va joriy ta'mirdan chiqarildi. Quduqlar har xil chiqindilardan tozalanib, ulardagiz zulfin va quvurlarga profilaktik

texnik xizmat ko'rsatildi. Amalga oshirilgan ishlar, albatta harbiy xizmatchilarning xavfsiz xizmat olib borishlari hamda oilarini bilan istiqomat qilishlari uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Garnizondagi harbiy qismlarini avtonom isitish tizimi bilan ta'minlash va energiya sarf-xarajatini kamaytirish maqsadida zamonaviy va ixcham qozonxona majmuasi qishning sovuq kunlarda harbiy obyektlarda mo'tadil havo haroratini ta'minlay oladi. Mazkur qozonxona harbiy xizmatchilarni sovuqdan asrab, yotoqxona va mashg'ulot xonalarini isitib turadi.

Shuningdek, yuqori elektr kuchlanishiga ega bo'lgan transformator hamda gaz tarqatish punktlariga texnik xizmatlar ko'rsatilib, ularning qishki mavsumiga soz va shayligi ta'minlanmoqda.

Isitish mavsumiga barcha obyektlarda tayyorgarlik ishlarini sinovdan o'tkazish uchun qozonxonalarda nazorat o't yoqish orgali qozon va quvurlarning soz hamda shayligi ko'rige o'tkazildi. Qishki mavsumda isitish uskunalarining doimiy faoliyatini nazorat qilish uchun mutaxassislardan iborat ishchi hamda isitish tizimida muammolarni hal etish uchun avariya-tiklash guruhi tuzilgan. Ularning asosiy maqsadi – harbiy shaharcha va undagi obyektlarda qish mavsumida issiqlikni ta'minlash va nosozliklar yuzaga kelgan taqdirda ularni zudlik bilan bartaraf etishdan iborat.

**Sobira singlisi Noilaning kasalxonada ekanligini eshitib, taraddudga tushdi. Ertalabdan qassobga chiqib keldi. Go'sht ham qimmatlabdi. Uyda yog' bilan un tugagan edi. Do'kondan qarz daftarga yozdirib, ikki kilo un bilan yog' oldi. Shukur, qolgan narsalar tomorqasidan chiqadi. Eri ham tezroq ish topa qolsa edi.**

# SHAFOQAT

Avvaliga yarim kilo go'shtga qarab, bolalariga ham yoqadigan, singlisiga ham xush keladigan qanday taom tayyorlashni o'yladi. So'ng barakali bo'ladi-ku, deb chuchvara tugishga kirishdi. Rostdan ham katta-kichikka birdek yoqadigan taom. Yoniga nima qo'shsa ekan? Xayollanib turib, hovlidagi mevalari oltindek tovlanib yotgan nokka ko'zi tushib, ichi yorishdi.

Singil opasini ko'rib, sevindi, tashvishga qo'yanidan xijolat tortdi.

- Opa, bekor ovqat olib kelibsiz, - dedi Noila Sobirani kuzatar ekan. - Kuyovingiz har kuni ikki mahal yegulik keltiradilar, uvol bo'ladi. Sovitkichning ichi oziq-ovqatga to'la, xuddi men och qolib ketayotgandek. Qaytarib olib keting, sovitkich ichidagilarni ham olib keting, kim yeysi shuncha narsani?

- Yaxshi ko'rgan taomingni yesang, kayfiyatning ko'tariladi, tezroq tuzalasan, - dedi opasi. - Qaytarib olib keting deganing nimasi, meni uyaltirma! Tog'ora oldi-berdisimi bu senga, ataylab, sen uchun pishirib keldim. Bo'pti, men bora qolay. O'zingni ehtiyyot qil, biron nima kerak bo'lsa, telefon qil.

Opa singlisini bag'riga bosib, xayrlashdi. Hovliga chiqib, katta darvoza tomonga qarab ketayotgan edi, qarshisidan eskigina makktab formasidagi bir qizaloq chiqib, salom berdi. Alik olishga oldi-yu, kichkina yuzi faqat ikki ko'zdan iboratdek ozg'in qizaloqqa hayron boqdi.

- Opa, men singlingiz Zuhraning sinfdoshi Zarifaman, - shodon jilmaydi qiz. - Darsda hushimdan ketib qolibman, ustoz tez yordam chaqirib,

kasalxonaga yetqizib ketdilar.  
- Iye, Zarifa, tanimaganimni qara! - juvon shunday deb qizchani bag'riga bosdi, sochlari, yuzlarini silab qo'ydi. - Nima bo'ldi? Bu yerda qachondan beri yotibsan, tuzalib qoldingmi? Uydagilar xabar olyaptimi?

Savol berishga berdi-yu, tilini tishlab qoldi. Orqasidan birov xabar olsa, kasalxonada ham makktab formasida yurar edimi?

- Bugun uch kun bo'ldi, - dedi katta-katta ko'zlar ma'yus tortib, - hech kim kelgani yo'q. Ayam yana achchiqlangan bo'lsa kerak... Kasal bo'lgin kelmaydi, agar o'rnimdan turolmasam, ayam urib tashlaydi.

Sobira titrab ketdi. Titilayozgan krossovkasiga ko'zi tushib, ezildi.

- Sen anavi o'rindiqda o'tirib, meni kutib tur, hozir kelaman, - yosh ayol shunday deb yo'llini kasalxona biqinidagi bozorchaga burdi. Yo'l-yo'lkay qo'lidagi pulini hisob-kitob qildi. Bitta oyoq kiyimga yetar ekan.

Qoshlariga ko'm-ko'k qilib o'sma qo'yib olgan o'zi tengi juvonning oldiga yoyib olgan poyabzallariga xaridor bo'ldi. Jigarrang oyoq kiyim juda bejirim ekan, narxini eshitib, bosh chayqadi.

- Qimmatroq ekan-da..

- Unda bunisini oling.

- Buni oldi ochiqroq ekan.

- Qizchalarga juda yarashiqli poyabzal, unchalik ochiq emas-ku?!

- Bilasizmi, uning oyoq barmoqlari yo'q... qorda sovuq oldirib qo'yan. O'gay

ona qo'liga qolgan-da! Hech kimning onasi o'lmasin, onasi tirik bo'lganidami...

Sotuvchi juvonning surmali ko'zlar pirpiradi.

- Dugona, shu jigarrang oyoq kiyimni yarim bahosiga beraman, oling, ichlari yumshoq, maza qilib kiysin.

Sobira sevinib ketdi.

Sotuvchi ayolga qayta-qayta rahmat aytib, ortga shoshildi. Qizaloq kutib turgan ekan. Qo'lidagini tutqazdi-da, "hozir kelaman", deb yana singlisining oldiga bordi. Noila hayron bo'ldi.

- Bolalar bo'limali Zuhraning sinfdoshi Zarifa yotibdi ekan, rahmatli Hikmatoy xolaning qizi bor-ku, o'sha. Birov xabar olmabdi, o'qituvchisi olib kelgan ekan. Bir joyning odamlarimiz. Shuncha odam orasidan meni tanib, yugurib keldi, indamay ketolmadim.

Noila shosha-pisha o'rnidan turib, sovitkichdag'i narsalardan olib, opasining sumkasini to'ldirib berdi.

- Opa, kuyovingizga aytaman, Zarifadan xabar oladi, doktorlar bilan ham gaplashadi, siz tashvish qilmang...

- Menimcha, ochlikdan hushini yo'qtongan, - dedi o'ylanib Sobira. - Zuhramiz doim shu dugonasining tashvishini qilib yurardi, eslaysanmi, o'gay onasi nonni ham qizg'anadi, derdi. Mayli, men boray, ko'p qolib ketdim, uyda bolalar ham yolg'iz.

Sobira singlisining yuzidan o'pib xayrlashdi. Zarifa uni uzoqdan ko'rib, istiqboliga yugurdi.

- Buni menga oldingizmi? - dedi bag'riga bosib olgan oyoq kiyimiga ishora qilib.

- Ha, senga, bular ham senga, ko'p-ko'p ovqat yegin, ozg'inligingni qara?!

- Rahmat, opajon, o'zi krossovkamning tagi ochilib qolgan edi, - shunday deb Sobirani quchoqlab oldi. - Qani edi, mening opalarim ham yaqin bo'lsa, ayam ularni uyimizga keltirgani qo'ymaydi. Kelishsa, janjal bo'lib ketadi. Katta opam meni olib ketaman degan edi, dadamga aytib, urib-surib, haydar chiqartirdi. Opam yig'lab-yig'lab, qaytib ketdi. Ko'pdan beri kelgani yo'q, sog'indim...

- Opalaring olisda-da, seni bu yerdaligingni bilsa, uchib kelardi, ikkisi ham. Sen hech narsani o'ylama, tezroq tuzalib ket. Zarifa, yordam kerak bo'lsa, Zuhra dugonangga sekingina bildirib qo'y, qo'limizdan kelganicha, ayangni jahlini chiqarmay, yordamlashamiz.

Juvon qizchaning paxmoq sochlari silab, yana bir xabar olishni diliga tugib, xayrlashdi.

Sobirani eri kutib oldi. Erkakning kayfiyati a'lo edi. Singlisining hol-ahvolini surishtirdi. Bugun eski ish joyi oxirgi maoshini beribdi. Uylaridan uncha uzoq bo'Imagan tosh konidan ham ish topibdi.

- Juda xursandman! - deb eri og'zi qulog'ida bugungi yangiliklarni aytta boshladи. - Kon ham yaqin, maoshi ham yaxshi. Olislarga ish izlab ketsammi, deb turgan edim. Kutilmaganda, oyoq ostidan shunday yaxshi ish chiqib turibdi.

Sobira eridan ham ko'proq quvonib, yuzlari tabassumdan gul-gul yashnab, uning gaplarini takror-takror, xuddi birinchini marta eshitayotgandek jon qulog'i bilan tinglardи.



## Akademik eshkak eshish

Xitoyning Shenyan shahrida  
akademik eshkak eshish  
bo'yicha yoshlar (U19 va U23)  
o'rtaida Osiyo championati  
o'tkazildi. Tarkibidan  
Mudofaa vazirligi Oliy sport  
natijalarini rivojlantirish  
markazi (MVSM) vakillari ham  
o'ren olgan yurtimiz yoshlar  
terma jamoasi ushbu qit'a  
birinchiligidagi muvaffaqiyatli  
qatnashdi va yakunda  
umumjamoai hisobida  
Xitoydan so'ng 2-o'rinni  
eqalladi.

So'nggi yillarda mamlakatimiz sportchilari turli yo'nalishdagi yirik xalqaro musobaqlarda muvaffaqiyatlari qatnashyapti. Bundan Fransiya poytaxti Parij shahrida o'tkazilgan XXXIII yozgi Olimpiada va XVII yozgi Paralimpiya o'yinlari ham xoli bo'lmasdi. Ha, to'rt yilda bir marta o'tkaziladigan bu ikki yirik musobaqa O'zbekiston sporti uchun shonli g'alabalarni, turli xil rekordlar bilan bog'liq quvонchli onlarni bizga tortiq etdi. XXXIII yozgi Olimpiada va XVII yozgi Paralimpiya o'yinlari yana ko'plab jihatlari bilan sportimiz tarixiga muhrlandiki, endilikda bu zafarlarning tub ildizi jahon matbuotini ham qiziqitirmoqda. Xususan, yaqinda Fransiyaning ommabop "Forbes France" onlaysin nashrida O'zbekistonning

Futbol

O'zbekistonda futzal bo'yicha jahon championati o'tkazilmoqda. Mezbonlar 1-turda dunyoning eng kuchli jamoalaridan biri Niderlandiya bilan 3:3 hisobida durangga erishdi. Musobaqa favoritlaridan biri hisoblangan Ispaniya terma jamoasi esa Qozog'iston bilan durang o'ynadi.



# YURTIMIZDA ILK BOR JAHON CHAMPIONATI

Yo'g'-e?!

...Ha, yaqin o'tmishda  
nday xabarlar biz uchun, yon  
'shnilarimiz uchun shunchaki  
tak, ko'riliyatgan tush yoxud  
halmas bir orzu bo'lib tuyulardi,  
'yo! Aslida esa... bunday xabarlar  
dilikda haqiqat, voqelik!  
ahon championati o'sha... har  
imgi Yevropa, Argentina yoki  
aziliyada emas..." qadimiylar  
misha navqiron Buxoro shahrida,  
tanimiz poytaxti Toshkentda,  
ajidondagi universal sport  
ajmuasida o'tkazilmoqda!

"O'g'lim, o'sha ro'zg'or  
shvishlaridan birpas xoli qoldir  
eni, orzumdagisi manavi o'yinni

bafurja ko'rib olay! Axir... O'zbekiston kimsan Gollandiya bilan o'ynayapti, boz ustiga jahon championligi uchun!" - qabiliidagi gaplar bugungi kunda yurtimizdagi aksariyat futbol muxlislari xonadonlarida bot-bot yangramoqda. Yurtimizda ilk bor o'tkazilayotgan jahon championati muborak, azizlar!

14-sentabr kuni mamlakatimizda futzal bo'yicha navbatdagi dunyo biringchiligiga start berildi. 24 ta milliy terma jamoa 4 tadan 6 ta guruhga bo'lingan holda championlik uchun bahslarga kirishdi. Jahon championati poytaxtimizdagi "Humo Arena", Buxoro va Andijondagi universal sport majmularida o'tkaziladi. Taqvimga ko'ra, o'zaro bahslar 52 ta o'yindan

iborat. Dasturga binoan, "Humo Arena" 27 ta uchrashuvga, Buxoro sport majmuasi 17 ta, Andijon sport majmuasi 8 ta o'yinga mezbonlik qiladi.

Jahon championatining ilk uchrashuvi Buxoroda Tailand - Xorvatiya terma jamoalari o'rtasida bo'lib o'tdi. Deyarli teng kurash ostida kechgan uchrashuvda Tailand terma jamoasi 2:1 hisobida g'alaba qozondi. Braziliya va Kuba terma jamoalari o'rtasidagi uchrashuvda esa 10:0 hisobi qayd etildi.

O'zbekiston milliy terma jamoasi Niderlandiya, Paragvay va Kosta Rika bilan birga "A" guruhidan o'rinni olgan. Vakillarimiz musobaqadagi ishtirokini 14-sentabr kuni "Humo

Aydana Smetullayeva,  
Rayxona Sattarova (*U-19*) – W2  
Shaxriyor Hamdamov,  
Obidjon Jo'raqulov (*U-23*) – M2

**Kumush medal:**  
Jamolbek Turg'unov, Bobur  
Muhiddinov (U-19) – M2x  
Mehroj Mamatzulov (U-23)  
– M1x

Daler Ashurov, Shaxriyor Sharifov, Muhammad Boboyev, Bobomurod Pardayev (U-19) – M4

**Bronza medal:**  
Mehroj Mamatqulov, Sobir  
Safaraliyev, Samir Roziqov,  
Samandar Hamroqulov (U-23) –  
M4x

Aydana Smetullayeva,  
Rayxona Sattarova, Rayxona  
Karimova, Nurila Abdullayeva  
W4

Roziqov, Sobir Safaraliyev (U-23)  
Muyor Hamdamov, Obidjon Jo'raqulov  
ustafoyev, Sardor Xayrullayev (U-23)

akademik eshkak eshuvchilarimizni  
tabr kunlari ko'hnasi Samarqand  
o'tkaziladigan kattalar o'rtaqidagi  
empionati kutmoqda. Yurtimizda  
marta tashkil etiladigan qit'a  
giga terma jamoamiz a'zolari shu  
qizg'in tayyorgarlik ko'rmoqda.  
ular shtabining ma'lumotiga ko'ra,  
ada O'zbekiston terma jamoasi  
tibda ishtirok etadi va ular safidan  
vazirligi Oliy sport natijalarini  
ish markazi vakillari Shaxboz  
yev, Shaxzod Nurmatov va Anna  
ham o'rinni organlari.

Arena"da Niderlandiyaga qarshi o'yin bilan boshladi. Mundial rasmiy ochilish o'yini hisoblangan ushbu bahs gollarga boy kechdi va o'yin 3:3 hisobida yakunlandi. Bosh murabbiy Xose Venansio Lopez shogirdlaridan Elbek To'lqinov 16', Ixtiyor Ropiyev 36' va Husniddin Nishonov 40', niderlandiyaliklardan Cheyar 4' hamda Odduh 28', 37' gollar muallifi bo'lishdi.

“D” guruhi doirasidagi ilk o‘yin Andijonda Yangi Zelandiya va Liviya terma jamoalari o‘rtasida o‘tkazildi. Unda liviyalik futzalchilar 3:1 hisobida g‘alaba qozondi. Guruhdagi ikkinchi uchrashuvda kutilmagan natija qayd etildi. Chunki guruh favoriti hisoblangan Ispaniya qo‘srimiz Qozog‘iston qarshiligini yenga olmadи – uchrashuv 1:1 hisobida vakunlandi.

Birinchi tur o'yinlarida ko'pchilik muxlis va mutaxassislar kutmagan natija Afg'oniston - Angola o'yinida qayd etildi. Millionlar o'yini u qadar rivojlanmagan Markaziy Osiyo vakili Afg'oniston futzalchilari ancha kuchli sanalgan Angola terma jamoasini 6:4 hisobida mag'lubiyatga uchratgani, Tailand terma jamoasi esa Xorvatiya ustidan 3:1 hisobida yutuqqa erishgani o'ziga xos "shov-shuv"ga sabab bo'ldi. Bundan anglash mumkinki, jahon championati finaliga shunchaki kelib qolgan kuchsiz jamoaning o'zi yo'q.

qo‘g‘an kuchisiz jamoamining 2-zi yu‘q qilinib, 17-sentabr kuni dunyo birinchiligining 2-tur uchrashuvlari boshlandi. “A” guruhidan o‘rin olgan O‘zbekiston va Paragvay terma jamoalari o‘rtasidagi uchrashuvda vakillarimiz 1:4 hisobida imkoniyatni boy berib qo‘ydi. Terma jamoamiz hisobidagi yagona golga Husniddin Nishonov mualliflik qildi.

Musobaqa 6-oktabrga qadar davom etadi.

Ertamiz egalari

# KUCH, TEZLIK,



# TEXNIKA VA OMAD

Odamlar orasida turli mavzudagi suhbatlar qulog 'imizga chalinadi. Gohida bu suhbatlar bahsga aylanib ketganiga ham ko'p bora guvoh bo 'iganmiz.

Ayniqsa, yuqori natijaga erishgan biror inson bo 'lsa, unga albatta "omadi keldi" degan iborani ishlatishadi. Aksincha bo 'ladigan bo 'lsa, "omadi kelmadid" deya qo'shimcha qilib qo'yishadi.

Gap 14 yoshida O'zbekiston kubogi sohibasi, 16 yoshida yoshlar o'rtaida jahon championi, 17 yoshida yozgi Olimpiada ishtirokchisi bo'lgan Sharifa Davronova haqida ketganida "omadli" yoki "omadsiz" deya olmaymiz. Chunki sportchiga omad kerakmi, yoki mehnat va harakatning o'zi kifoyami degan savollarga bugun qahramonimizning o'zi javob bergani ma'quldek tuyuldi.

Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi sportchisi, kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchi, oddiy askar Sharifa Davronova endigina 18 yoshni qarshilagan bo'lsa-da, erishgan natijalar yoshi va jo'ssasidan ancha zalvarli. U uch hatlab sakrash bo'yicha ikki karra jahon championi, "Parij - 2024" yozgi Olimpiada ishtirokchisi, "Kelajak bunyodkori" medali sohibasi va ko'p karra Osiyo championi hisoblanadi.

Yengil atletika bo'yicha O'zbekiston terma jamoasi a'zosini sanalgan qahramonimiz sodda va kamtarin ekan. Federatsiya hovlisida murabbiyi hamrohligida mashg'ulotlarni davom ettirayotgan Sharifa bilan bo'lib o'tgan suhbatimiz samimiy bo'ldi. Birinchi bergen savolimiz omad bilan bog'liq.

## Omad yoki mehnat

- Men savollaringizga mutaxassis singari javob bera olmasam kerak. Ammo tajribamdan kelib chiqib, aytadigan bo'lsam, sportda erishilagan natijaning tagida tinimsiz mehnat yotadi. Omad mehnat va mashaqqat ortidan keladi. Inson tongdag'i uyqusidan voz kechishi qanchalik qiyin bo'lmasin, o'zida iroda topib, badantarbiya mashg'ulotlarini boshlashi kerak. Bunday "qurbanlikni" hamma ham uddalay olmaydi. O'ylaymanki, o'zini yenggan inson kuchli bo'ladi, hayotda erishishi mumkin bo'lgan natjalarga ertaroq yetishadi. Sportda ham ketma-ketlik shunday bo'lsa kerak: kuch, tezlik, texnika va omad!

## "Tendoshlarimga havasim kelardi"

- Sport mashg'ulotlariga 4 yoshimdan qatnay boshlaganman. Onam o'zida ushalmagan orzusini menda ko'rishni istagan. Shu sabab bolaligimdan sport zaliga olib borishgan. O'sha vaqtarda ko'chada tengqurlarim erkin o'ynab yurishardi. To'g'risini aytsam, ularga havasim kelgan. Men ham ular singari erkin bo'lishni juda xohlaganman. Lekin ixtiyorim o'zimda bo'lmagan. Qachonlardir, men xohlamay borib yurgan sport zallari, bir kun kelib, taqdirimga aylanib ketishini o'shanda tushunmaganman. Hozir baralla aytu olamanki, sport - hayotim mazmuni. O'zimni yengil atletikasiz tasavvur qilolmayman.

## Musobaqadagi g'irnomliklar

- Sportchini ruhan sindirish natijaga ta'sir qilmay qolmaydi. Chunki ruhiyatning tetikligi g'alabaning dastlabki kafolati sanaladi. Xalqaro musobaqlarda ham kichik va katta nohaqliklar bo'lib turadi. Gohida shunday holatlar bo'ladiki, e'tibor bermaslikning iloji qolmaydi.

Turkiyaning Konya shahrida bo'lib o'tgan V Islom sport birdamlik o'yinlarida ishtirok etganimda 15 yoshda edim. O'shanda 14,30 metr natija bilan ikkinchi o'ringa loyiq ko'rildim. Natijamdan qoniqish hissi yuqori bo'lishiga qaramay, murabbiyim hakamlar qaroridan norozi bo'ldi va tekshiruv o'tkazishini talab qildi. Aslida men kumush medalga ham rozi edim. Ammo murabbiyim Muzaffar Karimov turkiyalik sportchi Tug'ba Danishmasning 14,41 metrlik natijasida texnik xatolikka yo'l qo'yanini payqab qoldi va apellyatsiyaga berdi. Uzoq tortishuvlardan keyin videoyozuvlar qayta ko'rib chiqildi hamda raqibimning ko'rsatgan natijasi bekor qilindi. Shu sabab men ikkinchi o'rindan birinchi o'ringa ko'tarildim.

## Ilk ishtirok, ortgan tajriba

- Bu yilgi yozgi Olimpiada o'yinlari men uchun debut bo'ldi. Raqiblarim orasida eng yosh ishtirokchi bo'ldim, desam, xato bo'lmaydi. Hamma sohada tajriba o'z so'zini aytadi. Aslida shaxsiy rekordim 14,30 metr. Agar o'sha natijani takrorlash imkon bo'lganida kuchli 10 talikka kirardim. Ammo boyta aytganimdek – bu nufuzli musobaqadagi hayajonli birinchi ishtirokim edi va men tajriba orttirdim.

To'g'ri, ko'rsatgan natijamdan qoniqmadim. Ozgina tushkunlikka tushdim. Ammo murabbiyning ko'rsatmalari menga yana umid bag'ishladi. Nasib etsa, 2028-yili Los-Anjelesda bo'lib o'tadigan yozgi Olimpiada o'yinlarida shohsupaneng eng yuqorisiga ko'tarilish uchun astoyidil harakat qilaman.

## Murabbiylarim

Professional sportda birinchi va hozirgacha menga murabbiylik qilib kelayotgan ustozim – Muzaffar Karimov bo'ladi. U otamdek mehribon inson. G'alabali onlarimda ham, mag'lubiyat alamini totib ko'rgan kezlarimda ham men bilan barobar suyunadi, kuyinadi. Yaqinlashib kelayotgan O'qituvchiga murabbiylar kuni bilan ustozimni tabriklayman. Sportchining faoliyatida juda katta o'rin tutadigan yana bir omil bu murabbiyining salohiyati hisoblanadi. Muzaffar akada shogirdlari uchun kerakli barcha xislatlari mavjud. Kerakli paytda bizni eshitadi. Inson psixologiyasini ham chuqrur urgangan. Olimpiada o'yinlaridagi natijasiz ishtirokimda ham katta dalda berib, Peruda bo'lib o'tgan 20 yoshgacha bo'lganlar o'rtaсидаги jahon championatida oltin medalni qo'lga kiritishimda ham u kishining hissasi juda katta bo'ldi. Kattalar o'rtaсидаги jahon va Olimpiada championligini qo'lga kiritib, ustoziim, ota-onam, yurtim ishchonchini oglash uchun tinimsiz harakatdan to'xtamayan. Qolaversa, katta leytenantlar Diyora Keldiyorova hamda Ulug'bek Rashitov singari men ham harbiylik mas'uliyatimni esdan chiqarmagan holda, jahon arenalarida Vatanim bayrog'ini balandroq ko'tarilishida bor kuch-g'ayratimni ayamayman.



# SHAHRISABZDA KURASH MUSOBAQASI

Qashqadaryo viloyati Shahrисabz shahrida joylashgan Amir Temur xiyobonida Qarshi harbiy prokuraturasи hamda Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug bilan hamkorlikda sportning milliy kurash turi bo'yicha harbiy prokuror kubogi bellashuvlari tashkil etildi.

Shahrисabz "Temurbeklar maktabi" harbiy akademik litseyi o'quvchilari o'tasida o'tgan bellashuvlar qizg'in va murosasiz bahslarga boy tarzda kechdi. Musobaqa qarshi "Temurbeklar maktabi" o'quvchilari orasidan 55, 65 va 77 kilogramm vazn toifasidagi polvonlarning kuch va mahoratlari sinaldi.

Bellashuvlarning sohibqironi Amir Temur haykali poyida o'tkazilgani mohiyatida ham chuqur ma'no mujassam. Halol va adolatli kurashayotgan o'g'londarda buyuk bobolar jasorati, Amir Temur, mirzo Bobur, Alpomish, Pahlavon Mahmud shijoati bo'y ko'rSATAYOTGANDEK go'yo. "Mardlar maydonda sinaladi" deydi dono xalqimiz. Polvonlarning davraga ta'zim bilan kirgani, halol kurashib mag'lub bo'sa-da, davradan ta'zim bilan chiqayotgani ham

yigit mardligining bir namunasi, desak, xato emas. Qarshi garnizoni harbiy orkestri ijrosida yangragan turli kuylar yig'ilganlarga ko'tarinkи kayfiyat ulashdi. Harbiy xizmatchilarning qurol bilan ko'rgazmali chiqishlarni kuzatgan yoshlarda esa harbiylikka havas hislari uyg'ongani, shubhasiz.



Musobaqa g'olib va sovrindorlari Qarshi harbiy prokurori kubogi, medal hamda qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandi.

**Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug matbuot xizmati**



Nazorat

## Faoliyat o'rganildi

Samarqand harbiy prokuraturasи tomonidan nazorat ostidagi harbiy qism va muassasalarda o'rganishlar olib borildi.

Xususan, kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik, xizmat o'talishi va buning uchun yaratilgan sharoitlar, harbiy texnikalar saqlanishi ahvoli o'rganildi. Ularda energiya samaradorligi, energotejamkor uskulalardan foydalanish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarga alohida e'tibor qaratildi.

Harbiy tuzilmalar hududida amalga oshirilayotgan qurilish-ta'mirlash ishlari ahamiyat berildi. O'rganishlar yakunida natijalar tahlillari asosida mas'ullarga tegishli ko'rsatmalar berib o'tildi.

Bundan tashqari, Mudofaa vazirligiga qarashli harbiy qismlarning birida "Biz korrupsiyaga qarshimiz" mavzusida muloqot o'tkazildi. Unda korrupsiya tushunchasi va bunday qilmishlar uchun javobgarlik asoslari haqida tushunchalar berildi. Muloqotdan so'ng shaxsiy qabul o'tkazildi.

Bulung'ur tumanida esa vatanparvarlik tadbiri tashkil etildi. Unda harbiy prokuratura, Markaziy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondonligi, tuman sektor rahbarlari va qator mutasaddi tashkilotlar mas'ullari hamda biriktirilgan yoshlar ishtirok etdi.

Markaziy harbiy okrug orkestr jamoasining kuy-qo'shiqlari va harbiy xizmatchilarning ko'rgazmali chiqishlari barchaga manzur bo'ldi. Yoshlar o'tasida sportning shaxmat, stol tennis bo'yicha musobaqalar tashkil etilib, g'oliblar munosib taqdirlandi. Yoshlarga tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishlari uchun zarur anjomlar topshirildi.

**Adliya polkovnigi  
Otabel XAYDAROV,  
Samarqand harbiy prokurori**

## Murojaatlar bilan ishlash samaradorligi

Ertangi kunga ishonch ortishi va bugundan rozilik hissi bilan yashashni ta'minlashda murojaatlar bilan ishlash samaradorligini oshirish eng muhim omillardan biri hisoblanadi.

Joylardagi bevosita muloqotlardan vazirliklari, Milliy gvardiya, IIV Qorovul qo'shinlari rahbariyati bilan hamkorlikda mamlakatimizning olis hududlarida ommaviy sayyor qabullar o'tkazib kelimoqda.

Ularning navbatdagisi Namangan viloyatining Pop tumanida tashkil etildi. Unda harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari, pensionerlar va yoshlar tinglandi.

Favqulodda vaziyatlar muloqotlardan vazirliklari, Milliy gvardiya, IIV Qorovul qo'shinlari rahbariyati bilan hamkorlikda mamlakatimizning olis hududlarida ommaviy sayyor qabullar o'tkazib kelimoqda.

Jarayonda murojaatlarni joyida ijobiy hal etishga alohida e'tibor qaratildi, bir qator murojaatlarga huquqiy tushuntirish berildi, yechimi vaqt talab etadigan murojaatlar esa nazoratga olindi.

**Adliya  
podpolkovnigi  
Gulchehraxon  
TURSUNOVA,  
Respublika Harbiy  
prokurorining katta  
yordamchisi**

## SPORTCHI larimiz 2- O'RINNI EGALLADI



Rossiya Federatsiyasining Moskva viloyatida aviamodel sportining "Havo jangi" yo'naliishi bo'yicha xalqaro musobaqa bo'lib o'tdi.

Ximki shahri mezonlik qilgan nufuzli bellashuvda Rossiya, Belarus, O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'izistonning 80 dan ortiq sportchisi o'zlarini tomonidan yasalgan samolyot modellari bilan ishtirok etdi.

Quvonarlisi, ushbu xalqaro musobaqada O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining aviamodel sportchilaridan iborat milliy terma jamoa 2-o'rinni egallab, mamlakatimiz sharafini munosib himoya qildi. Birinchi o'rin Rossiya, uchinchi o'rin esa Qozog'iston jamoasiga nasib etdi.

"Havo jangi" – aviamodel sportining "F-2D" sinfiga mansub yo'naliishi hisoblanadi. Unda sportchilar yerdan turib, o'zlarini boshqarayotgan samolyot modellari yordamida raqiblarining samolyotlariga bog'langan lentalarni kesishi talab etiladi. Shu bilan birga, o'zlarining samolyot modellariga bog'langan lentalar raqiblari tomonidan kesilishiga yo'l qo'ymasliklari kerak. To'rt daqqaq ichida ishtirokchi samolyot modelining orqa qismiga yopishdirilgan uch metrdan iborat lentani qanchalik ko'p kessa, unga beriladigan ball oshib boraveradi.

**O'zbekiston Respublikasi  
mudofaasiga ko'maklashuvchi  
"Vatanparvar" tashkiloti matbuot xizmati**

Bilishingiz shart!



# GAZDAN ZAHARLANISH VA BIRINCHI YORDAM

Kuz-qish mavsumida aholi o'rtasida is gazidan zaharlanish hamda havo-gaz aralashmasi chaqnashi bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish va aholining bu boradagi savodxonligini oshirish maqsadida, Mudofaa Vazirligi yong'in xavfsizligi xizmati quyidagilarni ma'lum qiladi.

Is gazi (*uglerod oksidi*) – rangsiz, ta'msiz, hidsiz zaharli gaz. Kimyoviy formulasi – CO<sub>2</sub>. U Yer yuzida energiyaning jadal ishlatalishidan yuzaga keluvchi, tabiatda eng ko'p tarqalgan zaharovchi gazlardan biridir.

Qazib olinadigan yoqilg'ining to'liq yonmasligi is gazining bosh manbai hisoblanadi. U asosan ko'mir, tabiiy gaz va boshqa yoqilg'ilarning to'liq yonmasligi sabab yuzaga keladi. Nafas olinuvchi havo tarkibida 0,1 foiz is gazining bo'lishi o'lim holatiga olib kelishi mumkin! Is gazi organizmga tushganda u qon tarkibidagi gemoglabin va kislorod tashuvchi eritrotsitlarni o'zaro bog'lab, kislordning tana bo'ylab harakatlanishini cheklaydi. Natijada inson hushini yo'qotadi.

#### **Is gazidan zaharlanishning umumiyligi belgilari:**

bosh miya tizimida: uyquga tortish, bosh aylanishi, bosh og'rig'i, hushini yo'qotish;

ko'rish tizimida: ko'z oldining qorong'ilashishi; eshitish tizimida: eshitish qobiliyatining pasayishi; teri qismida: terlash kuchayishi; nafas olish tizimida: nafas olishning og'irlashishi, yo'tal; yurak qismida: puls va AB ortishi; mushaklar tizimida: tremor (*qaltirash*).

#### **Qanday holatlarda is gazidan zaharlanish xavfi yuqori bo'ladi?**

Shamollatish tizimi yaxshi ishlamaydigan organik moddalarni ishlab chiqaradigan korxonalarда; avtoulovlar turargohlarida; yangi bo'yagan va shamollatilmagan xonalarda; uy sharoitida tabiiy gaz chiqib turganda; pechka bilan isitiladigan uylar, hammomlar, dam olish palatkalarida yonuvchi moddaning to'liq yonmasligi natijasida zaharlanib qolish mumkin.

Bundan tashqari, hozirda savdo do'konlarida sotilayotgan, gazda ishlaydigan har xil turdag'i gaz uskunalar, jumladan Eron davlatida ishlab chiqilgan "kamin" gaz uskunasi chiroyli, ixcham ko'rinishli, isitish mavsumida ishlatib, keyin boshqa joyga olib qo'ysa bo'ladiqan qulayliklarga egadir. Biroq ushbu gaz uskunasi boshqa davlatda ishlab chiqilgani sabab uni o'rnatish va foydalanishga doir texnik pasporti o'zbek yoki rus tillariga tarjima qilinmagan. Shuning uchun undan foydalanishdagi xavfsizlik qoidalari bilan tanishish imkon bo'lmaydi. Mazkur gaz uskunasi o'zboshimchalik bilan, mutaxassisning ko'rsatmasisiz "Qurilish me'yorlari va qoidalari" talablarini buzgan holatda o'rnatilmoqda. Natijada esa insonlar is gazidan zaharlanib vafot etmoqda.

#### **Tabiiy gazdan foydalanishda nimalar taqiqlanadi?**

O'zboshimchalik bilan uyni gazlashtirish, gaz asbobi o'rnini almashtirish, uni yangilash va tuzatish; gaz asboblari o'rnatilgan xonalar rejasini o'zgartirish; dudburon va shamollatish tizimlarini o'zgartirish; xavfsizlik va sozlash avtomatikasini uzib qo'yish; maktabgacha yoshdag'i bolalar, shuningdek o'z harakatlarini nazorat qila olmaydigan shaxslarning gaz asboblardan foydalanishi; gaz va gaz asboblardan boshqa maqsadlarda foydalanish; gaz asboblari o'rnatilgan xonada uplash va dam olish.

#### **Suyultirilgan gazdan foydalanishda nimalar taqiqlanadi?**

Bo'sh va suyultirilgan gazli ballonlarni xona hamda yerto'lalarda saqlash; gazlashtirilgan xonaga 50/55 litr sig'imli ballondan bittadan ortiq yoki 27 litrli ballondan ikkitadan ortiq qo'yish;

ballonlarni qizishdan saqlaydigan to'siq o'rnatilgan bo'lsa, ballon bilan isitish asbobining oraliq'i 0,5 metrgacha qisqartirilishi mumkin, ballon bilan to'siqning orasi esa 10 santimetrdan kam bo'imasligi kerak;

ballonlar bilan o't yoqish eshigining oraliq'i 2 metrdan oz bo'lmasligi lozim; xonaga o'rnatilgan ballonlar almashtirilayotganda elektr yoritkichlarni yoqib-o'chirish, ochiq olovdan, elektr isitish asboblari va isitish pechlaridan foydalanish; ballonlarni almashtirish ishlari bilan bog'liq bo'lмаган shaxslar borligida ballonlarni almashtirish.

#### **Gazdan zaharlanganda birinchi yordam qanday ko'rsatiladi?**

Barcha holatdagi og'ir zaharlanishlarda zudlik bilan tez tibbiy yordam chaqirish zarur. Shifokor yetib kelgunga qadar quyidagilarni amalga oshirish kerak:

A) jabrlanuvchini zudlik bilan gazlangan hududdan toza havoga olib chiqish;

B) jabrlanuvchining qo'l va oyoqlarini ko'tarilgan holatda yotqizish;

C) nafas olishiga xalaqt beruvchi barcha narsalarni yig'ishtirish (*tugmalarni yechib, yoqani ochish, kamarni bo'shatish va boshqalar*);

D) jabrlanuvchining uxbab qolmasligini nazorat qilish. Jabrlanuvchini yurgizish taqiqlanadi;

E) jabrlanuvchi nafas olmayotgan bo'lsa, unga toza havoda yoki havosi yaxshi aylanadigan xonada sun'iy nafas oldirishni boshlash lozim;

F) nashatir spirtini hidlatish;

G) hushiga kelgan vaqtida yiqilib, jarohatlanmasligi uchun choralar ko'rish;

H) jabrlanuvchining holati yaxshi bo'lsa, issiq choy yoki qahva ichirish;

I) kislorod yostig'i yordamida kislorod berish.

**Mayor Ahmad ORIPOV,  
Toshkent garnizoni yong'in  
nazorati inspeksiysi boshlig'i**

Davra suhbati

# SAYLOV TIZIMI ISLOHOTLARI

Mudofaa vazirligiga qarashli harbiy qismning madaniyat markazida "Mamlakatimizda demokratik saylov tizimini shakllantirish va rivojlantirish sohasida amalga oshirilgan islohotlar" mavzusida targ'ibot tadbiri bo'lib o'tdi.

Tadborda shaxsiy tarkibning yurtimizda kutilayotgan muhim siyosiy jarayon – 2024-yil 27-oktabrda Oliy Majlis Qonunchilik palatosi va Xalq deputatlari mahalliy kengashlari deputatligi uchun o'tkaziladigan saylovlar mazmun-mohiyati yuzasidan tushunchalarini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari akademiyasi katta o'qituvchisi, siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori mayor Abduqodir Otabayev harbiy xizmatchilarga saylov qonunchiligiga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar, saylovlarini o'tkazish tartibi, tuzilgan saylov komissiyalari tarkibi hamda



vakolatlari xususida ma'lumot berdi. Shuningdek, shaxsiy tarkibga Qonunchilik palatosi deputatlari saylovi aralash saylov tizimi asosida o'tkazilishi haqida alohida to'xtalib, zarur tushunchalar berildi.

Videokonferens-aloqa shaklida tashkil etilgan davra suhbatida harbiy xizmatchilar o'zlarini qiziqtirgan savollarga mutaxassislardan javob oldi.

**Shahnoza SULTONOVA**

# Dunyo mamlakatlarida o'qituvchilar kuni

Xalqimizda "Ustoz – otangdek ulug'", degan hikmat bor. Ha, otady ulug', deb nisbat beriluvchi inson bu ustozdir. Zero ota-onan farzandni dunyoga keltirib, voyaga yetkazadi, ustoz esa unib-o'sishi, kamolotga erishishi, ilm cho'qqilarini zabit etishiga ko'maklashadi. O'z umri, qalb qo'ri, aql-idroki, tajribasi va bilimini sarf etadi. Shu sababli ularning biz uchun qilgan mehnatlarini hech qachon yodimizdan chiqarmasligimiz lozim.

O'qituvchi va murabbiylarga alohida ehtirom ko'rsatish maqsadida YUNESKO va Xalqaro mehnat tashkilotining sa'y-harakatlari bilan 1994-yil 5-oktabr kunidan "Butunjahon o'qituvchilar kuni" sifatida belgilangan.

O'lug' kasb egalariga bizning yurtimizda ham alohida hurmat va e'tibor qaratilgan bo'lib, ushbu kun 1996-yildan buyon 1-oktabr – "O'qituvchi va murabbiylar" kuni sifatida nishonlanadi hamda bayram kuni hisoblanadi.

Qiziq, bu bayram butun dunyoda yilning qaysi sanasida

nishonlanadi? Quyida ushbu bayram dunyo mamlakatlarida aynan yilning qaysi sanasida o'tkazilishini bilib olasiz.

Ozarbayjon, Armaniston, BAA, Bangladesh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Kamerun, Kanada, Qatar, Qozog'iston, Quvayt, Litva, Mavrikiy, Maldiv, Myanma, Niderlandiya, Pokiston, Rossiya, Ruminiya, Shimoliy Makedoniya, Filippin va Estoniya davlatlarida YUNESKO va Xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan qabul qilingan "Butunjahon o'qituvchilar kuni"da nishonlanadi.

Belarus, Latviya, Ukraina va Qirg'iz davlatlarida oktabr oyining birinchi yakshanbasida nishonlansa, Avstraliyada esa ushbu kun oktabrning oxirgi jumasiga to'g'ri keladi. Aljir, Misr, Iordaniya, Yaman, Liviya, Marokko, Saudiya Arabistoni va Tunis davlatlarida 28-fevral kunida bayram qilinadi.

AQShda ushbu kun "Milliy o'qituvchilar kuni" deb nomlanadi va may oyi birinchi haftasining seshanba kuniga, Singapurda esa sentabr oyining birinchi jumasiga to'g'ri keladi. Argentinada o'qituvchilar kuni



Domingo Sarmentoning xotirasiga bilan bog'liq bo'lib, 11-sentabrda bayram qilinadi.

Albaniyada 7-mart, Braziliyada 15-oktabr, Vyetnamda 20-noyabr, Gretsiyada 30-yanvar, Indoneziyada 25-noyabr, Ispaniyada 27-noyabr, Hindistonda 5-sentabr, Xitoyda 10-sentabr, Koreya Respublikasi va Meksikada 15-may, O'monda 24-fevral, Polshada 14-oktabr, Slovakiyada 28-mart, Tailandda 16-yanvar, Turkiyada

24-noyabr kuni bayram qilinadi. Ustozlar bayrami mamlakatda rasmiy dam olish kuni hisoblanadigan davlatlar ko'p emas. Ularga O'zbekiston va Tailand kiradi.

**Podpolkovnik  
Nozim KAMALOV,  
Qurollli Kuchlar akademiyasi  
o'qituvchisi**

## Reklama

# O'qishga marhamat!



O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining Xorazm viloyati kengashi tasarrufidagi "Xiva - Karvon" o'quv sport-texnika klubi jamoasi Xiva shahri va tumani hududida istiqomat qilayotgan yoshlarni va barcha xohlovchilarni zamon talablari asosida faoliyat boshlagan haydovchilikning "B", "BC" toifalariga hamda "B" dan "C"ga va "E"ga qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslariga o'qishga taklif qiladi.

Bundan tashqari, "Havo miltig'idan o'q otish", "Yozgi biatlon" kabi seksiyalarda ham qatnashishingiz mumkin.

Agar o'qimoqchi yoki sportning texnik va amaliy turlari bilan shug'ullanmoqchi bo'lsangiz, bunda sizga "Vatanparvar" tashkiloti ko'makchi bo'lishini unutmang! Chunki bu yerda mashg'ulotlar qiziqarli va yuqori saviyada tashkil etilib, ko'p yillik boy tajribaga ega mutaxassislar tomonidan olib borilishi kafolatlanadi.



Xiva shahri Najmiddin Kubro ko'chasi, 36 uy.



90 737-02-02

99 347-75-70

Mahsulotlar sertifikatlangan



# TANLOVDA ADASHMANG!

Bugungi kun talablari asosida qayta faoliyat boshlagan O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining Buxoro viloyati kengashi tasarrufidagi Romitan tumani o'quv sport-texnika klubi jamoasi barcha xohlovchilarni avtomototransport vostilarini boshqarishning "A", "B", "BC", "BE", "CE" hamda "D" toifalariga o'qishga taklif etadi. Endilikda klubda nazariy va amaliy mashg'ulotlar bilan shug'ullanish uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan.



Romitan tumani "Bog'cha" mahalla fuqarolar yig'ini, "Vatanparvar" tashkiloti O'STK binosi.



97 306-00-29

Mashg'ulotlar malakali mutaxassislar tomonidan olib borilishi kafolatlanadi.

Shuningdek, sportning texnik va amaliy turlari – "Havo miltig'idan o'q otish", "Yozgi biatlon", "Karting", "Motokross" kabi seksiya va to'garaklarda shug'ullanishga taklif etadi.

Hurmatli yoshlar! Tanlovda adashmang!

Agar siz mohir haydovchi bo'lishni istasangiz, albatta "Vatanparvar" tashkilotiga murojaat qiling!

Mahsulotlar sertifikatlangan

Bolajon


## BUYUK IXTIROLAR

Bolajonlar, mana,  
yangi o'quv yili  
ham boshlandi. Har  
kuni onajoningiz  
yoki opalaringiz  
tomonidan tekis  
qilib, dazmollangan  
kiyimlarda ilm  
maskani tomon  
oshiqasiz. Hech  
oy'lab ko'rghanmisiz,  
ilk dazmollar qachon  
paydo bo'lgan, ular  
qanday ishlagan?  
Quyida siz uchun  
dazmol to'g'risida  
ma'lumot to'pladik.

Ilk dazmollar qadimgi Yunonistonda  
paydo bo'lgan. Bu dazmol olovda  
qizdiriladigan silliq sirtli granit  
bo'lagidan iborat edi. Issiq toshni ushlab  
turish noqulay bo'lGANI uchun unga  
tutqich qo'yishdi. Taxminlarga ko'ra,  
o'sha paytlar hamma yunon va rimliklar  
ham kiyimlarini dazmollahga qodir  
emas edi. Xitoyliklar ham qimmatbaho  
ipak matolarining yanada silliq va

# ILK DAZMOL

## QANDAY PAYDO BO'LGAN?



chiroyli ko'rinishi uchun bunga ehtiyoj  
sezishardi.

Avaliga dazmollah moslamasi  
temirdan, keyinchalik quyma  
temirdan yasalgan. XVI asrga  
kelib, silliq hamda qalin yuzali va  
tutqichdan iborat bu moslamaning  
og'irligi 3-10 kg atrofida bo'lgan.  
Og'irligi uchun undan foydalanish  
juda noqulay bo'lgan, shu sabab  
uning ixcham variantini yasashga  
to'g'ri kelgan. Shunday qilib,

ko'mir yoki gaz yordamida  
ishlatiladigan dazmollar paydo  
bo'lgan. Bu moslama temir qutidan  
iborat bo'lgan. Unga ko'mir yoqib,  
cho'g solishgan yoki trubka orqali  
ballondan gaz ulab, olov yoqilgan.  
Bu bilan dazmollah biroz  
osonlashgan lekin jarayon juda  
xavfli bo'lgan. Chunki dazmoldan  
foydalanganda cho'g tushishi,  
gaz alangasi qo'lni kuydirishi  
yoki qimmatbaho matoni yoqib

yuborishi mumkin edi. Shuning  
uchun bunday moslamadan kir  
yuviladigan joylarda, maxsus  
tayyorgarlikdan o'tgan, tajribaga  
ega kishilar dazmollagan.

Yillar davomida odamlar  
qo'pol va qattiq matoni tabiiy  
yo'l bilan yumshatish ustida  
bosh qotirishgan. Ular bunda  
qizdirilgan temir o'qlovlardan  
ham foydalanishgan.

1882-yilda Genri Sili elektr  
dazmolni ixtiro qildi. O'shandan  
beri ushbu qurilmaning dizayni  
takomillashib, yangidan yangi  
funksiyalari ko'payib bormoqda.  
Uni ishlatish ham juda oson,  
faqat xavfsizlik qoidalariga riosa  
etishni unutmang! Yaxshisi, bu  
yumushni bajarishda o'zingizdan  
kattalarga iltimos qilganingiz  
ma'quл.

# MAG'RUR

*eqquush*



(jahon xalq ertagi)



Bir kuni o'rmondagi ko'lga chiroyli  
oppoq qush uchib keldi. Uning qanotlari  
gordek oq bo'lib, bo'yni uzun edi. U  
qanotlarini yozganda atrofga suvning  
mayda zarrachalari sochilar va xuddi  
ertakladagidek manzara paydo bo'lar edi.

Qushni birinchi bo'lib quyoncha ko'rdi.  
Uning go'zalligidan lol qolib, anchagacha  
yoniga kela olmay, uzoqdan tomosha qildi.  
Nihoyat, yurak yutib ko'l yoniga keldi va  
qushga dedi:

- Salom, mening ismim Quyonvoy,  
sen kimsan?

Qush unga bir nazar soldi-yu,  
indamay, sohildan uzoqroqqa suzdi.

- Men senga yomonlik qilmayman,  
- dedi quyoncha. Lekin qush unga  
qaramadi ham.

Quyoncha qushning bunday  
harakatidan xafa bo'ldi va  
sekingina: "Chiroyli bo'lganing bilan  
tarbiyasiz ekansan", dedi.

Shu payt shoxdan-shoxga sakrab,  
olmaxon keldi. U ham ko'lдagi oqqushning  
chiroyiga mahliyo bo'ldi.

- Salom, go'zal qush, o'rmonimizga xush  
kelibsan! - dedi.

Qush esa indamay suvda suzar, u go'yo  
olmaxon bilan quyonchani ko'rmas edi.

- Men sen bilan do'stlashmoqchiman,  
kel, tanishamiz! - dedi unga yaqinroq borib  
olmaxon. Oqqush esa orqasini o'girib,  
nariga suzib ketdi. Buni ko'rib, olmaxon  
yelkasini qisdi.

Ignalariga qo'zigorin va qurigan  
mevalarni sanchib olgan tipratikan ularning  
yonidan o'tib ketayotgan edi. Olmaxon va  
quyonchani ko'rib, ularni mevalari bilan  
mehmon qildi. Ko'lda suzib yurgan oqqushga  
havas bilan tikildi.

- Bunday chiroyli qushning do'stlari ham  
ko'p bo'lsa kerak. Men unga hatto gapirishga  
uyalaman, chunki ko'rimsizgina hayvonman,  
- dedi.

Bilasanmi, kirpivoy, sening tashqi  
ko'rining tikonli bo'lGANI bilan, qalbing  
chiroyli, shuning uchun do'stlaring ham  
ko'p. Bu qushning esa chiroyini tomosha  
qilib to'ydik, chunki unda hech qanday iliqlik  
yo'q ekan, afsus, - dedi olmaxon.

- Yuringlar, ketdik! - dedi quyoncha va  
hammalari mag'rur qushni yolg'iz qoldirib,  
o'rmonga kirib ketishdi.

Insoniyat tarixidagi eng qimmatbaho loyiha Yerda emas, balki koinotda joylashgan. Yigirma besh yildan ortiq vaqtadan buyon Xalqaro kosmik stansiya (XKS) bepoyon orbitada parvoz qilmoqda. Unda insonlar yashab, mehnat qilmoqda, astronomiya, biologiya, fizika va boshqa bir qator sohalarda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda, kosmosning insonga ta'siri o'rganilmoqda va yangi texnologiyalar sinovdan o'tkazilmoqda.



Quyida siz ana shu stansiyaning qanday tuzilgani va u haqdagi qiziqarli ma'lumotlar bilan tanishishingiz mumkin.

### Birinchi ekipaj

XKSning bazaviy elementiga aylangan "Zarya" bloki 1998-yilda orbitaga olib chiqilgan. Rossiyalik Yuriy Gidzenko, Sergey Krikalyov va AQSh vakili Uilyam Sheperd dan iborat bo'lgan birinchi ekipaj esa uning bortiga 2000-yilda uchib borgan hamda 136 kun davomida u yerda faoliyat olib borgan.

### XKS kimga qarashli?

Nafaqat moliyaviy tomonidan qimmatbaho, balki ilmiy jihatdan ham insoniyat uchun juda muhim ahamiyatiga ega bo'lgan mazkur loyihamda beshta kosmik agentlik ishtirok etadi:

- "Roskosmos" (Rossiya)
- NASA (AQSh)
- JAXA (Yaponiya)
- CSA (Kanada)
- ESA (Yevropa Ittifoqiga a'zo 10 ta mamlakat).

Hozirgi vaqtga kelib, XKS loyihasining umumiy qiymati 150 mlrd dollarni tashkil etadi. Stansiya inson tomonidan yaratilgan eng qimmatbaho obyekt sifatida "Ginnesning rekordlar kitobi"ga kiritilgan.

### XKS tavsiflari

O'chamlari – 108,4 metrga x 74 metr (uni 30 qavatlari uy bilan taqqoslash mumkin). Og'irligi – 420 tonna atrofida. Orbitadagi parvoz tezligi soniyasiga 7,66 km (deyarli 27,6 ming km/s). Bu ko'rsatkich tovushning havodagi tezligidan 22 barobar ortiq. Bunday yuqori



tezlik Yerning tortish kuchini yengib o'tish uchun zarur. Orbitaning o'rtacha balandligi dengiz sathidan 408 km yuqorida.

XKS tuzilmasi asosi modul prinsipiiga ega: yangi bloklar ulardan avval orbitaga chiqarilgan bloklarga uzviy tarzda ularни boradi.

### XKS tarkibi

Xalqaro kosmik stansiya tarkibidan Rossiyaning "Zarya", "Zvezda", "Poisk", "Rassvet", "Nauka", "Prichal" va "Kupola" modullari, AQShning "Yuniti", "Destini", "Kvest", "Garmoniya", "Trankviliti", "Leonardo" va BEAM tipidagi eksperimental turarjoy moduli, Yevropa Ittifoqining "Kolambus" va Yaponianing "Kibo" moduli joy oлган.

### XKSdagi turmush sharoiti

Stansiya interneta kirish imkoniyati mavjud, kitob o'qish, musiqa tinglash va filmlar tomosha qilish mumkin. Ekipaj a'zolarining uqlash joyi, shartli ravishda aytganda, devorda osilib turadi. XKSda ovqat solingen tyubiklar allaqachon yo'q bo'lib ketgan, hozirda buning uchun konserva bankalari yoki sublimatsiyalangan mahsulotlardan foydalilanadi.

### Bosh muharrir:

podpolkovnik Ahror Ochilov

### ISSN 2010-5541

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro'yxtaga olingan.

**Telefonlar:**  
kotibiyat: 71 260-36-50  
buxgalteriya: 71 260-35-20  
yuridik bo'lim: 71 260-29-41  
faks: 71 260-32-29

**Navbatchi:** podpolkovnik Gulnora Xodjamuratova  
**Sahifalovchi:** Dilnoza Meliqo'ziyeva  
**Musahhih:** Sayyora Mirzayeva

Buyurtma: V-5825  
Hajmi: 6 bosma taboq  
Bichimi: A3  
Adadi: 33 893 nusxa  
Boshishga topshirish vaqt: 14:00  
Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiha "O'zbekiston" NMU mas'ul.

@Vatanparvargazetasi\_bot

"Vatanparvar" birlashgan tahririyati bilan bog'lanish uchun telegram bot



## SHU SONNING ELEKTRON SHAKLI



**Tahririyat kengashi:**  
general-major Hamdam Qarshiyev  
polkovnik Otobek Yuldashev  
polkovnik Alisher Boboxonov  
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo'yozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.  
Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – "Vatanparvar" birlashgan tahririyatinning kompyuter markazida sahilafalandi.

# XALQARO KOSMIK STANSIYA



90 daqiqa ketadi, shu sababli ekipaj a'zolari har 45 daqiqada, ya'ni sutkasiga 16 marta tong otishi va kun botishini kuzatishlari mumkin.

2008-yilda XKSga "abadiylik diskii" olib chiqilgan bo'lib, unda sivilizatsiyamiz to'g'risidagi ma'lumotlar, buyuk insonlarning raqamlashtirilgan DNKLari, shuningdek insoniyat erishgan muhim yutuqlar haqidagi ma'lumotlar jamlangan.

XKSda xilma-xil organizmlar – chuvalchang va qurtlardan tortib, to gekkonlargacha mehmon bo'lgan. Ulardan biologik tajribalar o'tkazishda foydalanilgan.

### XKSni kelajakda nimalar kutmoqda?

Mazkur stansiyadan foydalanish muddati bir necha bor uzaytirilgan. So'nggi mish-mishlarga qaraganda, XKS 2031-yilda Tinch okeaniga cho'ktirib yuborilishiga to'g'ri kelishi mumkin ekan...

P. SAYDIVALIYEV tayyorladi.

@Vatanparvargazetasi\_bot  
"Vatanparvar" birlashgan tahririyati bilan bog'lanish uchun telegram bot

1 2 3 4 5 6

Gazeta juma kuni chiqadi.  
Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqa boshlagan.  
Nashr ko'rsatkichi: 114.  
Bahosi: Kelishilgan narxda.  
"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi.  
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
Manzilimiz:  
100164, Toshkent, Universitet ko'chasi, 1-uy.